

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK TILI YO'NALISHI
4-kurs 403 - guruh bitiruvchisi
Mamadjanova Malika Valijon qizining
bakalavr darajasini olish uchun**

***"O'zbek hajvchiligi rivojida Muqimiy
ijodining o'rni"***

mavzusida yozgan

**BITIRUV - MALAKAVIY
ISHI**

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dots. O. Karimov

Namangan – 2016-yil

MUNDARIJA

Kirish.Yurtboshimiz I. A. Karimovning adabiyot haqidagi fikrlari	3
I bob. Muqimiyl – Qo’qon adabiy muhitining yirik vakili.....	8
1.1. Yurtboshimiz I. A. Karimovning adabiyot haqidagi fikrlari.....	8
1.2. Muqimiyning hayot va ijod yo’li haqida.....	11
1.3. Muqimiyning adabiy merosi, yetakchi g’oyalari va janrlari.....	16
II bob. Ustozlardan bahra olib.....	31
2.1. Muqimiyl hajvlarining janr xususiyatlari.....	31
2.2. Muqimiyl ijodida ijtimoiy satira va humor va badiiy mahorat masalalari.....	36
2.3. Muqimiyl asarlarining o’ziga xosligi, didaktik ahamiyati va bizning zamoni.	50
Xulosa.....	58
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	61

K I R I S H

Mavzuning dolzarblii. Mustaqil O’zbekistonning kelajagi ko’p jihatdan barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalashga bog’liq. Ana shunday vazifani amalga oshirish uchun Vataniga, xalqiga sadoqatli fikrlaydigan erkin ijodkor shaxsni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lib turibdi.

Mustaqilligimiz tobora mustahkamlanib, o’zining ijobiy samaralarini bera boshlagan bugungi kunda xalqimiz oldida hayotning moddiy va ma’naviy asoslardan kelib chiqadigan yangidan-yangi vazifalar turibdiki, ularni amalga oshirishda adabiyot va san’at, umuman, ma’naviyatning ahamiyati kattadir. O’zbekistom mustaqil bo’lgach, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma’naviy, madaniy-adabiy sohalarda keskin o’zgarishlar yuz berdi. Adabiyotga e’tibor kuchaydi. Istiqlol yillarida hayotimizning barcha sohalari qatori milliy adabiyotimiz ham tom ma’noda yangilanish va yuksalish jarayonlarini boshdan kechirmoqda.

O’zbekona qadriyatlarimizni yosh avlod ongu-shuuriga singdirishda Milliy uyg’onish davri adabiyotimiz vakillari ijodiy merosi katta ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, Qo’qon adabiy muhitida yetishib chiqqan, o’z sozi va ovoziga ega shoir Muhammad Aminxo’ja o’g’li – Muqimiyning hayoti va ijodi haqida iliq fikrlar aytishga haqlimiz.

O’zbek adabiyoti tarixining ma’rifatchilik davriga mansub shoirlar orasida shoir Muqimiyning ham munosib o’rni bor.

Muqimiy juda murakkab, tarixiy voqealarga boy bo’lgan bir davrda yashab o’tdi. O’sha davrda shoir Qo’qon xonligining rus armiyasi tomonidan istilo qilinishini o’z ko’zi bilan ko’rdi. Musulmon yurtni g’ayridin chor Rossiyasiga qaram bo’lib qolishi yuragida og’ir dard bo’lib yotganligi ham tabiiy. Ammo shunday og’ir damda xon huzurida yashab ijod qilib, xalq manfaatini himoya qilish oson bo’lmagan. Sobiq sho’rolar davrida yaratilgan darsliklarda va bir qator qo’llanmalarda Qo’qon xoni bilan shoir bir-biriga qarama-qarshi qo’yilgan. Aslida bunday bo’lmagan. Muqimiy olib borayotgan ishlar xonga ma’qul keladi, saroyda ishslash jarayonida Muqimiy ko’plab nohaqliklarni o’z ko’zi bilan ko’radi. Oddiy

xalqning ahvoliga qattiq achinadi. Davr ziddiyatlari shoirning turli janrlarda yozilgan asarlarida o'z ifodasini topib bordi.

Prezidentimiz o'tmishda yaratilgan moddiy va ma'naviy yodgorliklarni asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazish haqida mulohaza yuritar ekan,yana shularni ham ta'kidlab o'tgan edi: "*Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqiqiy tarixini tiklash, milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rinn tutadi*"².

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, Muqimiylar ijodini tarixiy davrdagi hayot bilan bog'liq holda o'rganish davr talabiga aylanib qoldi, deyish mumkin. Shoir badiiy merosini atroflicha o'rganish ana shu xayrli ishning bir qismidir. Shu jihatlarga ko'ra ushbu bitiruv-malakaviy ishimizning mavzusi dolzarbdir.

Mavzuning o'rganilishi. Istiqlol davrida o'tmishimiz, shu jumladan, Milliy uyg'onish davri adabiyotimiz tarixini o'rganishga qiziqish kuchaydi. O'mni kelganda Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotimiz to'g'risida juda ko'plab tadqiqotlar yaratilganligini ham ta'kidlab o'tish lozim. Xususan, Qo'qonda yashab ijod etgan ijodkorlar haqida Mirzaolim Mushrif³ esdaliklar yozgan. G'afur G'ulom, Homil Yoqubov⁴, Abdulla Olimjonov⁵, Hodi Zaripov⁶, Hoshimjon Razzoqov⁷, G'ulom Karimov, Abdurashid Abdug'afurov kabi adabiyotshunos olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar yaratilgan⁸.

Bundan tashqari, keying yillarda yana ko'plab kabi adabiyotshunoslarmiz ham shoir ijodi haqida tadqiqot ishlari, ilmiy maqolalar yozishgan⁹.

² **Каримов И.А.** Юксак маънавият – енгилмас куч.-Т.:Маънавият, 2008, 136-бет.

³ **Мирзаолим Мушриф.** Кўкон хонлиги тарихи.XIX аср охири-XX аср бошларида яшаган шоирлар ҳақида эсдаликлар.-Т., 1995.

⁴ **Ҳомил Ёқубов.** Ўзбек демократ шоири Муқимий. Т., 1963.

⁵ **Абдулла Олимжонов.** Мухаммад Амин Муқимий.Т., 1963.

⁶ **Ходи Зарипов.** Мухаммад Амин Муқимий.Т., 1965.

⁷ **Хошимжон Рассоқов.** Муқимий ва Завқий. Т., 1965.

⁸ **Каримов Ф. К.** Ўзбек адабиёти тарихи. 3- китоб, 3-нашри,-Т.:”Ўқитувчи”, 1987, 179-бет; **А. Абдугафуров.** Муқимий сатираси. Т., 1976.

⁹ **А. Турдиалиев.** Боф аро. Шеърлар. Муқимий. Тўплаб ва нашрга тайёрлаган. Т.,2010; Тожибоев Р. Бир адабий чалкашлик хусусида. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007, 6-сон, 45-бет; **Мадаминов А.** Янги баёз, Т.: 1997; **Каримова С.** Фурқат мувашшаҳлари. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, 4-сон, 46-бет; **Жабборов Н.** Адабий манбаларда матн таҳрири масаласи. Адабий манба: ўрганишнинг замонавий тамойиллари ва нашр муаммолари (мақолалар тўплами). Қарши: Насаф, 2013.

Shuningdek, shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar mактаб, akademik litsey va oily o'quv yurtlarining darsliklaridan ham o'rин olgan.

Albatta,biz bu bitiruv-malakaviy ishda Muqimiy ijodiy merosi masalasini to'liq holda yoritishni emas, balki uning muhim, xususiyatlarini aks ettirgan hajviy asarlarini imkon darajasida yoritishni lozim topdik. Chunki katta iste'dod egasi bo'lган Muqimiy asarlari masalasining hamma xususiyatlarini birgina ishda ochib berish mumkin emas.

BMIning maqsad va vazifalari. BMIning asosiy maqsadi Muhammad Aminxo'ja Muqimiy badiiy merosinu, xususan satirasini o'rganish, Qo'qon adabiy muhitida tutgan o'rmini tadqiq qilishdan iborat. Shuningdek, ishda qiyidagi masalalar yoritiladi:

- shoir Muqimiy ijodining o'rganilish tarixi;
- Muqimiy va Qo'qon adabiy muhiti;
- shoirning badiiy merosi;
- shoir lirkasining mavzu jihatdan rang-barangligi;
- shoir ijodida an'anaviylik masalasi;
- Shoir Muqimiy lirkasi;
- sevgi-muhabbat mavzusining berilishi;
- Muqimiy ijodida ma'rifatparvarlik g'oyalarining kuylanishi;
- shoir ijodida satira va humor;
- shoir she'rlarida qo'llangan badiiy san'atlarning o'rni va ahamiyati;
- shoir Muqimiyning adabiyotimizda tutgan o'rni.

Tadqiqot manbalari. Mazkur bitiruv-malakaviy ishimizda biz shoir Muqimiyning turli yillarda nashr etilgan asarlari (1958,1961,1973, 1974), xususan, 2009-yilda nashr qilingan "Tanlangan asarlar"¹⁰,shuningdek, yuqorida nomlari zikr etilgan adabiyotshunoslarning shoir haqidagi risola ilmiy maqolalaridan foydalandik.

¹⁰ **Муқимий.** Танланган асарлар.-Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти,2009: **А. Турдиалиев.** Бор аро. Шеърлар. Муқимий. Тўплаб ва нашрга тайёрлаган. Т.,2010

BMIning ilmiy metodlari. BMIning metodologik asosini Yurtbosimiz I.A.Karimovning tarixiy va madaniy merosni o'rganishga bag'ishlangan asarlaridagi dasturiy fikr-tavsiyalar hamda milliy istiqlol g'oyasi haqida yaratilgan bir qator adabiyotlardagi boy madaniy merosimizni o'rganish, asrash va targ'ib qilish borasidagi qarashlar tashkil qiladi. BMIning ilmiy metodini belgilashda esa G'. Karimov, N. Mallayev, B. Qosimov, I. Haqqulov, A. Abdug'afurov, S. Karimova, R. Tojiboyev, N. Jabborov, Q. Pardayev, A. Madaminov kabi olimlarning o'zbek adabiyotshunosligi, xususan, shoir Muqimiy ijodiga doir tadqiqotlariga tayanildi.

BMIning ilmiy va amaliy ahamiyati. Muqimiy ijodi, Qo'qon adabiy muhitida tutgan o'rni haqida o'rganish 1953-yildan boshlandi. Shu vaqtga qadar shoirning badiiy mahorati, adabiy merosi keng miqyosda o'rganilmagan edi. Shoir tavalludining 100, 160, 165 yilligi munosabati bilan qutlug' ishga qo'l urildi. Avval e'lon qilinmagan g'azallari ham e'lon qilina boshladi. Muqimiy ijodini ko'p tadqiq qilgan mashhur olim G'. Karimov qatoriga ko'plab olimlar qo'shildi. Biz mazkur BMIda ushbu muammoni o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Ish qator nazariy va ilmiy ahamiyatga ega. Nazariy qimmati shundaki, shoir asarlarining g'oyaviy-badiiy olami haqidagi tushunchalarni kengaytiradi. Amaliy ahamiyati shundaki, chiqarilgan ilmiy xulosalardan kelgusida oliyohlarda "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi", "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" fanlari bo'yicha o'tkaziladigan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda, maxsus kurslarda, shuningdek, akademik litsey va kollejlarda adabiyot darslarida foydalanish mumkin.

- kollej va litseylarda maxsus kurs va maxsus seminar o'tkazishda;
- o'rta maktab darsliklariga yordamchi material sifatida foydalanishda;
- oliy o'quv yurti filologiya fakultetidagi to'garaklarda ma'ruza qilishida;
- ma'naviyat va ma'rifat masalalarini o'rganish hamda targ'ib etilishida;
- milliy istiqlol g'oyalarini o'rganishda foydalanish mumkin.
- Muqimiy she'riyatida obrazlar va satirik qahramon yaratish masalalarining tahliliga alohida e'tibor qaratish;

- shoir satiralarining badiiyati, shoirning mahorati masalalariga e'tibor qaratish.

BMIning tuzilishi va hajmi. Bitiruv-malakaviy ish kirish,ikki asosiy bob (har bir bobda uchtadan fasl bor), xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini ilova qilishdan iborat. Ish jami 63 sahifadan iborat.

I BOB. MUQIMIY – QO’QON ADABIY MUHITINING YIRIK VAKILI

1. 1. Yurtboshimiz I. A. Karimovning adabiyot haqidagi fikrlari.

Badiiy adabiyot insonning ma’naviy olamini boyitadi, ruhiyatini tarbiyalaydi, qalbimiz va ongimizda odamiylik hislarini parvarishlaydi. Badiiy adabiyotning asosiy quroli badiiy so’zdir. O’zi ko’zga ham ko’rinmaydigan so’z yordamida nafaqat atrofdagi narsa-hodisalarini, balki boshdagi o’ylar, ko’ngildagi sezimlarga qadar ifodalash mumkin. Insonning o’y-xayollari, istag-u armonlari badiiy adabiyotda to’la aks etadi. Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimovning “*Ma’naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo, insonni tushunish, anglash kerak*”,¹¹ degan so’zlari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiyotning asosiy tasvir obyekti – inson.

O’zbek millatining qon-qoniga adabiyotga oshuftalik hissi singib ketgan. Ona zaminimizda yaratilgan ko’plab asarlar jahon adabiyoti durdonalari safidan mustahkam o’rin egallab ulgurgan. O’zbek adabiyotiga qiziqish chet el olimlari tomonidan ko’plab ilmiy tadqiqotlarning yaratilishiga sabab bo’lgan.

Yurtboshimiz mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab adabiyot ahliga har tomonlama yordam ko’rsatish, ijod erkinligini ta’minlash, badiiy adabiyotlar nashrini ko’paytirish borasida O’zbekiston hech qaysi davlatdan ortda qolmasligi masalasiga alohida e’tibor qaratmoqda. Eng muhimi, milliy adabiyotimizning ertangi kuni, uning kelajakdagi rivoji ma’naviyat sohasidagi ustuvor vazifa ekanini alohida uqtirmoqda.

“*Agar biz O’zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiylarixi va yorug’ kelajagini ulug’lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo’lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarini, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Zero, ulug’ adib Cho’lpon aytganidek, adabiyot yashasa – millat yashaydi*”¹².

¹¹ Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т: “Маънавият”, 2008, 29-бет.

¹² Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т: “Маънавият”, 2008, 140-бет.

Adabiyotni ma’naviyat xazinasi deb ta’riflashadi. Darhaqiqat, uning bag’rida hozirga qadar insoniyat ardoqlab kelayotgan eng tansiq hislar, latif tuyg’ular – insonparvarlik,adolat, shafqat, o’zaro hamjihatlik, do’stlik mehr va muruvvat, sevgi va muhabbat, go’zallikka tashnalik singari o’lmas insoniy tuyg’ular jamuljamdir. Adabiyotga oshnoi tutingan odam qalbiga bu hislar ko’chib o’tishi, uni hazrati insonga aylantirishi, hayotiga nur olinb kirib, turmushini turfa mazmun bilan boyitishi aniq. Yurtboshimiz shu jihatlarni hisobga olib “*Eng buyuk jasorat – ma’naviy jasoratdir*,” –deya ta’kidlagandilar. O’zbekistom mustaqil bo’lgach, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma’naviy, mada- niy- adabiy sohalarda keskin o’zgarishlar yuz berdi. Adabiyotga e’tibor kuchaydi. Istiqlol yillarida hayotimizning barcha sohalari qatori milliy adabiyotimiz ham tom ma’noda yangilanish va yuksalish jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Aytish mumkinki, adabiyotga e’tibor keskin o’zgarmoqda. Bu borada Prezidentimizning olib borayotgan siyosati ayniqsa ibratlidir. Jumladan, ”*Xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug’ bir dargoh deb biladi. Ana shunday bahoning o’zi el-yurtimiz hayotida bu soha namoyandalariga, ularning haqqoniy so’zi,chuqur ma’noli asarlariga ishonch hurmat-e’tibor va ehtirom azaldan yuksak darajaga ko’tarilganini yaqqol ko’rsatib turibdi*”¹³, - deb haq gapni aytgan edi dono Yurtboshimiz.

Ijodkor zamonaning o’tkinchi epkinlariga berilmay, hayotda yuz berayotgan voqealarning tub zamiriga nazar tashlashi, mana shu chuqurlikda yotgan asl sabab-mohiyatni ko’rishi va uni mukammal obrazlar hamda vositalar orqali badiiy hodisaga aylantira bilishi lozim. Adabiyotshunoslik fanida “*abadiy muammolar*” degan tushuncha mavjud. Bu shunday muammolarki, zamonlar o’tishi, bir-ikki davr kishilarining sa’y-harakatlari bilkan ular yechilib, yo’q bo’lib ketmaydi. To odamzod bor ekan, bu muammolar unga doimiy va ajralmas hamroh bo’lib qolaveradi. Odamzodni qiziqtiraveradi, o’ylantiraveradi, qiynayveradi. Muhabbat va nafrat,adolat va adolatsizlik, imonlilik va nafsga qullik, haqiqat va yolg’on, mardlik va qo’rkoqlik, sadoqat va sotqinlik, vatanparvarlik tuyg’ularini o’z ichiga qamragan, abadiy muammolarni yoritgan asarlarga umrboqiylik kasb etadi.

¹³ **Ислом Каримов.** Адабиётга эътибор – маънавиятгаб келажакка эътибор.-Т.:”Ўзбекистон”, 2009,7-бет.

Badiiy asarlar insonni boyitib, tetiklashtirib, ma’naviy qashshoqlashishdan asraydi. Odamning moddiy boyliklari ko’payishi uni o’z-o’zidan ma’naviy boy qilib qo’ymaydi. Inson och-yupun qolmaslik to’g’risda qanchalik o’ylasa, o’zini ma’naviy yuksaltirish to’g’risida undan-da ko’proq jon kuydirishi kerak bo’ladi.

Mustaqil ona Vatanimizning ertangi kun taqdiri qanday bo’lishi, dunyo xalqlari orasida orttiradigan obro’si ko’p jihatdan yosh avlodga bog’liq. Chunki mamlakatni mamlakat, millatni millat qiladigan uning bag’rida o’stirayotgan farzandlaridir. Agar bu farzandlar faqat qorin g’amini o’ylaydigan, yurtdoshlari taqdiriga befarq, o’z manfaati yo’lida insof, adolat, iymon tuyg’ularini toptab o’tadigan kimsalar bo’lib yetishsa, bunday yurtga chetdan bostirib keladigan dushmanning ham keragi bo’lmaydi. Ma’naviyatsiz, ma’rifatsiz kimsalarning qilmishlari yurtning nafaqat bugunini, balki kelajagini ham xavf ostida qoldirishi turgan gap. Bunday farzandlar qo’liga o’tadigan yurtning boyliklari talon-taroj bo’ladi, iqtisidiy tanazzul bedavo dardga aylanadi. Uning madaniyati va san’ati milliy qiyofasizlikka duchor bo’ladi. Jamiyat hayotidaadolatsizlik, insofsizlik va madaniyatsizlik oddiy holga aylanib, kishilarning kelakajakka bo’lgan ishonchi mutlaqo so’nadi.

Farzandlari ma’rifatli, ma’naviyatli, o’zligini tanitgan xalqning komil farzandlari esa, ona Vatan, zamin qadrini har narsadan yuksakka qo’yadi. Shuning uchun ham xalqimiz boshidan o’tgan yaxshi-yomon kunlarni doimiy yodda tutish uchun adabiyotga murojaat qilamiz. Adabiyot tarixi – millat va mamlakat tarixinining jonli ifodasıdır. Adabiyotni anglagan millat o’zligini anglaydi.

Har bir millatning qiyofasini belgilashda uning adabiyoti ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’ladi. Chunki milliy adabiyot milliy ruhni aks ettiradi. Milliy ruhni to’laqonli aks ettirish va uni saqlab qolishda boshqa biror-bir vosita adabiyot o’rnini bosa olmaydi. Shuning uchun adabiyoti bo’limgan millat unutilishga mahkum. Turkiy tilda yaratilgan asarlarda turkiy xalqlarning otashin ruhi aks etib turadi.

O’zbek adabiyoti deganda beixtiyor ko’z o’ngimizda Alisher Navoiy siyoshi gavdalanadi. Chunki Alisher Navoiy asarlarida yuqorida

ta’riflaganimizdek, abadiy muammolar talqin etilgan. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek: “*Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimiz g’ururi, shan’u sharafini dunyoga tarannum qilgan o’lmas so’z san’atkoridir. Ta’bir joiz bo’lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so’zlovchi biron-bir inson yo’qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa*”¹⁴.

Chunki Navoiyni bilish, Navoiyni sevish, millatni sevish, Navoiyga sadoqat eng ezgu qadriyatlarga sadoqat demakdir. Prezidentimiz tomonidan Hazrat Navoiyga berilgan bu baho barcha yozuvchilarning qalbiga buyuk faxr tuyg’usini solmog’i kerak. Boisi, san’at va adabiyotni bunday qo’llab-quvvatlash faqat mustaqil O’zbekistonimiz ravnaqi yo’lidagi muhim omildir.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ijodkor qo’liga qalam olar ekan, u Navoiy ijodidan ilhom oladi, desak yanglishmaymiz. Ne-ne zamonlar o’tdi, ko’plab Alisher Navoiy izdoshlari yetishib chiqdi, bu an’ana bugungi porloq zamonda ham davom etmoqda. Shular qatorida oddiy xalqdan yetishib chiqqan, xalq g’amini, ertangi istiqbolini o’ylab yashagan; o’z asarlarida noxush kayfiyatlarni, olchoq zamonni ro’y-rost ifodalab porloq kunni orzulagan shoir Muhammad Aminxo’ja o’g’li Muqimiyyidir.

1. 2. Muqimiyning hayot va ijod yo’li haqida.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi o’zbek adabiyotining eng yirik vakillaridan biri atoqli shoir Muhammad Aminxo’ja Mirzaxo’ja o’g’li Muqimiyy Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyotida munosib o’rin tutadi¹⁵. Shoir o’z ijodi bilan jahon adabiyotshunosligida “*devon adabiyoti*” deb nomlangan Sharq adabiyotidagi eng yaxshi an’analarni davom ettirdi. Ayni paytda, rus istilosiga tufayli ijtimoiy hayotda kechayotgan o’zgarishlarni adabiyotga olib kirib, uning

¹⁴ Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т: “Маънавият”, 2008, 47-бет.

¹⁵ Bu haqda qarang:Til va adabiyot ta’limi jurnali,2015-yil,9-son.**O. Karimov.**Muqimiyy ijodi klaster tahlilda.20-bet

yangilanishida o'zining munosib hissasini qo'shdi. Uning she'rlari hayotlik vaqtidayoq Turkistonning turli shaharlariga yoyilgan, shoirlar ularga muxammaslar bog'lar, xonandalar qo'shiq qilib aytar edilar. Muqimiy milliy ozodlik harakati haqida she'rlar yozgan, o'z salohiyati va mavqeyi bilan mакtab yaratgan alloma shoir edi¹⁶. Shoир asarlari xalqimizning chor mustamlakasi davridagi og'ir hayoti manzaralarini o'zida mujassam etgan.

Muqimiy 1850-yilda Qo'qon shahrining Bekvachcha mahallasi (hozirgi Muqimiy ko'chasi)da dunyoga kelgan. Otasi Mirzaxo'ja Mirfozil o'g'li novvoy bo'lган, onasi Bibioysha Sayidolim Nodirshayx qizidir. Muqimiy oilada uchinchi farzand bo'lган.

Muhammad Aminxo'ja xat-savodini mahallasidagi Abduxalil domlaning maktabida chiqargan. So'ngra, ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, Qo'qondagi Hokimoyim madrasasida va Buxoro madrasalarida tahsil olib, arab, fors tillarini chuqur o'zlashtirdi. U xattotlikka ham qiziqib, qo'qonlik mashhur xattot Muhammad Yusufdan husnixatni o'rgandi. Muhammad Aminxo'ja 15-16 yoshlaridan boshlab “Muqimiy” taxallusida she'rlar yoza boshladi. Muqimiy yigirma besh, yigirma olti yoshlaridayoq Qo'qon va uning atroflarida taniqli shoir sifatida el og'ziga tushdi. Afsuski, ayni shu davrda yurtimiz chor mustamlakasi asoratiga tushib qoldi. Siyosiy-ijtimoiy hayotdagi bu tanazzul, ma'naviy hatotga ham ta'sir ko'rsatdi. Kishilarning o'z din-shariatidan tobora uzoqlashishi oqibatida jamiyatda muvofiqlik, yulg'ichlik va poraxo'rlik kabi illatlar ko'payib ketdi. Kambag'al odamning gapi hech kimga o'tmaydigan zamonda Muqimiy yashashga, ijod qilishga majbur bo'ldi. Shoир bir qancha vaqt Qo'qondagi yer o'lchash boshqarmasida ishlagan vaqtida bu ahvolni o'z ko'zi bilan ko'rdi. Bu uning yetuk asari bo'l mish – “Tanobchilar” satirasida o'z ifodasini topgan. Atrofda bo'layotgan nohaqliklar, fojialar shoir qalamining yanada o'tkirroq, keskinroq bo'lishiga olib keldi. Muqimiy xalq dard va quvonchlarini o'z asarlarida ifoda eta olgani uchun ham oddiy xalq o'rtasida mashhur bo'lib ketdi. Bir she'rida shoir shunday yozadi:

¹⁶ Bu haqda qarang: **S. Ahmedov.** Muqimiy. Kitob nomi: Milliy uyg'onish davri adabiyoti. Darslik, T.: 2004, 93-bet

*Kettilar hasrat bilan mardum yig'ib dunyo, darig',
 Hirsu g'aflat pardasi bosib, bo'lib a'mo, darig',
 Dahrdin bir olihimmat bo'ljadi paydo, darig',
 Johu qudrat birla xok o'ldi g'aniylar, vo darig',
 Xayru ehsonin ko'rolmay benavolardin biri¹⁷.*

Muqimiyning hayoti doimo muhtojlikda o'tdi. U 1890-yilda o'z hovlisini sotib, pulini o'gay onasi va singillariga bo'lib bergach, mahallasidagi Sohibzoda Hazrat madrassasining bir hujrasiga ko'chib o'tib, o'sha yerda umrbod yashab o'tdi. Muqimi o'z davrining mashhur shoirlari Muhyi, Nisbatiy, Furqat, Muhayyir, Zavqiylar bilan shu yerda uchrashib, do'stlashdi, ular bilan adabiy majlislar, mushoiralar o'tkazdi. Bu adabiy hamkorlik samaralarini biz mazkur shoirlarning ijodiy merosidagi bir xil mavzu, bir xil radif va qofiyadagi ko'plab she'rlarda yaqqol ko'ramiz. Jumladan, Muqimi, Muhyi, Furqat, Zavqiy, Nusrat, Nisbatiylar birgalikda G'oziy g'azliga bog'lagan qator muxammaslari, "Gul", "Sandali" radifli g'azallar, "Viktor" siklidagi satiralar, "Fonus", "Ko'samen" kabi humoristik she'rlar fikrimizga dalil bo'la oladi.

Muqimi madrasada turgani uchun ilm ahli sifatida unga ham vaqf daromadi hisobidan bir ulush berib turilardi, madrasa vaqflarini podsholik olib qo'yganligi uchun undan ham mahrum bo'lgan. Bu haqda Muqimi jiyani Ro'zimuhammadga yozgan xatida shunday deydi: "*Har daf'a xat beramiz – savg'osiz, sizga munosib yuborg'udek bir nimarsa yuborolmay xatlarimiz quruq borib, nihoyatda yozgan xatlarimizdin xijolat va sharmanda bo'lamiz. Bechoralik, podsholik madrasalarni vaqfini olib qo'ygan, hech bir tarafdin daromad yo'q...*"¹⁸. lekin xalq o'z shoirini doimo qo'llab turgan. Muqimiyni shaxsan tanib turganlardan ko'pchiligi u haqda yaxshi fikrlar bildirgan. Dehqonlar shoirni o'z qishloqlariga chorlab ham turganlar.

Muqimi she'riyati xalqqa juda yaqinligi bilan alohida ajralib turadi. XIX asrda ijodi xalq o'rtasida bunchalar mashhur bo'lgan o'zbek shoirlari barmoq bilan sanarli. Shuning uchun uning yuzlab she'rlari xalq qo'shiqlariga aylanib ketgan.

¹⁷ **Муқимий.** Боғ аро. Шеърлар. – Т., "Akademnashr", 2010. 192-бет.

¹⁸ **Муқимий.** Икки томлик асарлар тўплами, 2-том/ Нашрга тайёровчи Ғулом Каримов. – Т., 1960,-Б. 127.

“Yakka bu Farg’onada”, “Muncha ham”, “Ko’zlarin”, “Kim desun”, “Ayrilmasun”, “Yodimga tushdi”, “Yolg’uz”, “Biri” va boshqa nazm namunalari fikrimiz dalilidir. Shoirning o’zi ham bir she’rida bu haqda faxrlanib shunday yozadi:

*Muqimiy so’zidin bo’yi muhabbat kelgay, ey ahbob,
Tarannum qilsa mahfillarda hofizlarningxushxonii.¹⁹*

Shoirning “Bachchag’ar”, “Avliyo”, “Tanobchilar”, “Hajvi Viktor” kabi hajv, “Burun”, “Loy”, “Ko’samen”, “Pashshalar”, “Bezgak”, “Otim” singari yumoristik she’rlari, o’zbek adabiyotida yangilik bo’lgan she’riy “Sayohatnoma”lari shoir ijodining abadiyatini ta’minlab turuvchi asarlardir.

Muqimiy 1903-yil 25-mayda 53 yoshida o’z hujrasida vafot etdi. Shoir Qo’qondagi Shayxon qabristoniga dafn etilgan. Uning vafotiga bag’ishlab o’sha davrning mashhur shoirlari Mavlaviy Yo’ldosh va Sulaymonqul Rojiy marsiya-ta’rixlar yozib qoldirganlar. Shoir hayoti va ijodini ilmiy o’rganish XX asrning 30-yillaridan boshlandi. Shoir G’afur G’ulom 1933-yili “Muqimiy bayozi”ni tayyorlab muxtasar so’zboshi bilan nashr ettirdi. Uyg’un, Hamid Olimjon kabi shoirlarimiz ham Muqimiy hayoti va ijodi haqida maqolalar yozishdi. Abdulla Olimjon, Hodi Zaripovlar shoir ijodi haqida maxsus tadqiqotlar yaratishdi. G’. Karimov doktorlik dissertatsiyasi yozdi, kitoblarini nashrdan chiqardi, 1970-yilda “Muqimiy” nomli monografiya ham e’lon qildi. Shoir va dramaturg Sobir Abdulla “Muqimiy” nomli musiqali drama yozdi, badiiy lavhalardan iborat “Mavlono Muqimiy” asarini e’lon qildi. Istiqlol yillarda ijodi keng o’rganildi. Po’latjon domla Qayyumovning 1998-yilda uch jildlik “Tazkirai Qayyumi” asari e’lon qilindi. Tazkiranagi Muqimiy va Muhyiga oid fikrlar, professor Sh. Yusupovning “Muqimiy va Muhyi” maqolasi adabiyotshunosligimizdagi yangicha fikrlashning mahsulidir. O’zMU dotsenti, filologiya nomzodi Qo’ldosh Pardayevning Muqimiy ijodi bilan bog’liq qator maqola va risolalari ham shoir ijodining bugungi kunda ham atroflicha o’rganish davom etayotganidan dalolatdir.

¹⁹ **Муқимий.** Бор аро. Шеърлар. – Т., “Akademnashr”, 2010. 154-бет.

Muqimiyning hayot va ijod yo'li, lirikasining yetakchi g'oyalari haqida akademik shoir G'afur G'ulomning fikrlari xarakterlidir²⁰.

“Muqimiy boylar, qozilar,hokimlr, mahalliy amaldorlarni g'oyat yomon ko'rар edi. Ularni o'zining o'tkir hajvlarida tuproqqa teng qilib so'kar edi. Ular haqidagi butun haqiqatni fosh qilar edi:

*Gar qilich boshimga ham kelsa degayman rostin,
So'zki haq bo'lsa, savolimga javobim kim desun.*

Muqimiy umrini g'oyat faqirlikda o'tkazdi, bularni kulgili tarzda yozdi. Muqiyning tili ravon, mavzulari kundalik, ayniqla alamzada, ezilgan kosib ommasining ko'nglidagini topib yozgani uchun she'rlari juda tez ommalashar edi. Butun she'rlarining yarmidan ko'pi turli kuylarda qo'shiq qilib aytilar, qo'llardan-qo'llarga nusxa ko'chirilib, qimmatbaho hujjatday qadrlanar edi. Hozir ham uning she'rlari qo'shiq qilib aytib kelinadi... bo'sh vaqtlarida Qo'qon, Andijon, Namangan, Toshken taraflarida aylanib yurar edi. U xatni rasm darajasida go'zal yozar edi. Forscha, arabcha mukammal bilar edi. Forscha yozilgan yaxshi she'rlari bor. U juda yomon hayot kechirgan. Uni o'z davrida anglayolmadilar. U xo'rangan. Chunki o'z davrining butun marazlarini fosh qilib turgan shoir o'sha vaqtdagi amaldorlarning barchasiga kerak emas edi. Bu har taraflama siqiq, zulm ostida ozmuncha ham talantlar yer bilan yakson bo'lmadilar. Muqimiy o'z boshidan kechirgan kulfatlarini kuylar ekan, yeti boshli ajdarning luqmasi bo'lib ketganini:

Ajdari g'am komiga mat'umdurmen ayrilib, –

deb to'g'ri aytadi. Uni Furqat kabi, o'z vatanidan ham haydamoqchi bo'ladilar.u shu muhitda tug'ilganidan afsus yeb:

*Mulki Hindu Marvdin kelsam topardim e'tibor,
Shul erur aybim, Muqimiy, mardumi Farg'onaman, –*

deydi. To'g'risi ham uning yashab-o'sgan muhitida hech qanday talantning bo'lishi mumkin emas edi. Qanchadan qancha buyuk kishilarning qismati Muqimiynikidan yaxshi bo'limgan... G'.G' buni 1938-yilda yozgan. Muqimiy

²⁰ **Фафур Фулом.** Асарлар. Ўн томлик. 8-том. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.

umrini asosan Qo'qon va uning atrofida o'tkazgan. Shuning uchun ham taxallusini "turg'un" ma'nosida "Muqimiy" deb qo'ydi. O'zi ham bir she'rida:

Bir vatandan dil uzib hijrat qilolmay dog'man, –

deydi.

Muqimiy hajvchilikda ustozlari – Navoiy, Turdi, Gulxaniy va Maxmurning ilg'or an'analarini davom ettirdi.

Shoirning ko'plab asarlari mehnatkash xalqning rahmsiz ravishda ezilishi, talanishi, uning qashshoq va huquqsiz turmushinibadiiy bo'yoqlar bilan ko'rsatishga bag'ishlangan. U o'zining bu kabi asarlarida ezilgan xalqning zolimlarga bo'lган keskin noroziligini va nafratini yaqqol ifodalaydi. Muqimiy satirasining xalqchilligi va badiiy kuchi xuddi shu bilan belgilanadi.

Muqimiy o'zining qator asarlarida xalqni og'ir ahvolga slogan amaldorlari satiric obrazlarining qiyofasini yaratadi. "Zavodchi boy ta'rifida" she'rida tarixiy haqiqat – bir zavoddagi ishchilarining o'z xo'jayinlaridan noroziligi va O'rta Osiyoda kapitalistik munosabatlar vujudga kelishi natijasida paydo bo'lган yangi tipdagi boy larning ochko'zliklari, zolimliklari realistic chiziqlarda ko'rsatilgan.

Muqimiy yerli savdogarlar, boylar, chor amaldorlarini, ularning laganbardor, poraxo'r, tilyog'lamachi ekanliklarini o'tkir badiiy mahorat bilan qalamga oladi"²¹.

1. 3. Muqimiyning adabiy merosi, yetakchi g'oyalari va janrlari

Milliy adabiyotimiz namoyandalari ijodini chuqurroq tadqiq qilish uchun avvalo ular qoldirgan adabiy merosni to'liq to'plash, shuningdek, dastxatlar va unga yaqin variantlarni aniqlash zarur. O'tmishda ayrim ijodkorlar asarlari taqdiri to'g'risida o'zlari qayg'urganlar va ularni to'plaganlar.

Taassufki, mumtoz adabiyotimiz taraqqiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan Muhammad Aminxo'ja Muqimiy asarlari "Devon" tartibida tuzilgan emas. Shunday bo'lsada, XX asr boshlarida toshbosma usulida (1907, 1910, 1912, 1913

²¹ **Фафур Фулом.** Асарлар. Ўн томлик. 8-том. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.20-22-бетлар.

yillarda) “Devon” deb atalgan she’rlar majmuasi nashr qilingan²². Ammo bu to’rtala to’plam ham devon tuzish talablariga rioya etilmagan holda tartiblangan. Shuning uchun ham mazkur to’plamlarni “Devon” deb emas, balki she’rlar majmuasi sifatida qabul qilish mumkin.

Muqimiy asarlari turli qo’lyozma va toshbosma bayozlarda, san’atkorlarning yon daftarlarida, adabiyot havaskorlari kollektsiyalarida, ayrim parcha qog’ozlarda turli kishilar qo’lida saqlanib kelindi. Ta’kidlash joizki, shoir asarlarini yig’ish va nashr etishda professor G’.Karimovning xizmatlari katta bo’ldi. U Muqimiy “Asarlar to’plami”ni jami to’rt marta (1958, 1960, 1973, 1974 yillarda) chop ettirdi. Afsuski, bu nashrlarda Muqimiy ijodi kommunistik mafkuraning kuchli tazyiqi sabab to’liq va mukammal holda nashr etilgan emas.

Muqimiy adabiy merosi qo’lyozmalari yuzasidan A.Shokirov ilmiy izlanishlari natijasida shoir she’rlari dastxatlari haqida yangi ma’lumotlar qo’lga kiritildi.

Istiqlol yillarida ham Muqimiy asarlari qo’lyozmalari ustida ilmiy izlanish olib borildi. Ayniqsa, shoir asarlarining eng so’nggi nashri²³ga kiritilmagan ayrim she’rlar keng jamoatchilik e’tiboriga havola etildi. Jumladan, adabiyotshunos A.Madaminovning xizmati bilan 1997 yili “Yangi bayoz” to’plami chop etildi. Adabiyotshunoslardan A.Turdialiev 2010 yilda shoirning “Bog’ aro”, E.Ochilov 2009 yili “Ko’nglum sandadur” nomli to’plamlarini nashr ettirdi.

Muqimiyning 7521, 1325, 9309 ashyo raqamlari bilan saqlanayotgan qo’lyozma bayozlari haqida adabiyotshunos olimlar o’z vaqtida fikr bildirganlar.

Jumladan, professor G’.Karimov 7521-raqamli bayoz xususida so’z yuritib, to’plamda 212 ta she’riy asar bo’lib, shundan 199 tasi Muqimiyniki ekanligini ta’kidlaydi. Olim bu to’plamni shoirning dastxat bayozlari sirasiga qo’shmagan.²⁴ A.Shokirov esa to’plamdagи she’rlar hajmini 212 ta deb 192 tasi Muqimiya tegishli ekanligini qayd etadi.

²² Ўз ФАШИ, №10119; №309; №318; №236.

²³ Каримов Ф. Муқимий. Асарлар тўплами. - Т.:Faфур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. (Бундан кейин мазкур китоб Муқимий асарларининг энг сўнгги нашри деб аталади).

²⁴ Каримов Ф. Муқимий ижодий меросининг манбалари. Муқимий. Асарлар. Т.: 1960, II том, 159-бет.

Keyingi izlanishlar natijasida bayozda 212 ta emas, 228 ta she'riy asar bo'lib, shundan, 208 tasi Muqimiy qalamiga mansubligi aniqlandi.

Mazkur bayoz XIX asr oxirlarida ko'chirila boshlangan. SHoir o'zining turli qo'lyozmalarda tarqoq holda bo'lган asarlarini jamlab, yaxlit bir majmua holiga keltirishni maqsad qilgan bo'lsa-da, biroq bu ish tugallanmay qolgan. Ijodkorning yana ko'plab she'rlarining unga kirmay qolishi, qolaversa, bayozning oxirida anchagini bo'sh varaqlar qolib ketgani bu fikrni tasdiqlaydi.

To'plamda Furqat, Zavqiy, Muhyi va Muhayyir g'azallari ham uchraydi. Ular o'z mazmuni, vazni, qofiyasi, radifi bilan Muqimiyning ayrim g'azallari bilan deyarli bir xil. Jumladan, bayozning 78^{a-b}, 78^a -sahifasida Muhyi va Muqimiyarning "Asrorqul" radifli hajviy she'rlari, 33^{a-b}, 34^a -sahifalarida Zavqiyning "Fonus" radifli she'riga Muqimiy javobi, 57^{a-b}, 58^a -sahifalarida esa Muqimiy, Furqat, Tajalliyarning "Nest" radifli fors-tojik tilidagi g'azallari yonmaydon keladi. Bu asarlar bir-biriga nazira tarzida yozilgani ma'lum. Binobarin, bunday nazira – o'xshatma she'rlar ular o'rtasidagi yaqin adabiy hamkorlik, ijodiy musobaqa va bir mavzuda qalam tebratishdagi har bir nazm sohibining o'ziga xos mahorat sirlarini bir joyning o'zida muqoyasa qilib kuzatishda qo'laylik tug'diradi²⁵.

Bayozdagi ba'zi she'rlar muallif tomonidan qayta-qayta tahrir qilingan. Masalan, 7521 raqamli qo'lyozma bayozning 79^{a-b} -sahifasi o'zida "Asrorqul" hajviy asarining 1-misrasi dastlab:

Sadqai odam bo'l, ey yuz hayfsan, Asrorqul,-

tarzida bo'lsa, keyingi variantda:

Sadqai odam ket, ey yuz hayfsan, Asrorqul, -

shaklida tahrir qilingan. Qiziq joyi shundaki, bir she'rning ikki uch xil variantlari ham uchraydi. Jumladan, "Arzimni boshingiz haqi dildorga ayting" deb boshlanuvchi 7 bandlik muxammas bayozning 43^{a-b}, 67^{a-b} -sahifalarida ikki xil variantda uchraydi. 1-bandi bayozning 43^{a-b} – sahifasida:

²⁵ Бу ҳақда А.Шокиров ҳам маълумот берган қаранг: Муқимий ижодида таҳрир масаласи. // Адабий мерос. Т.: Фан, 1971, 222-бет.

*Arzimni, boshingiz haqi, dildorga ayting,
Mushtoqlig’im sho’xi sitamkorga ayting,
Sog’inganimi ko’zlari xummorga ayting,
Hijron o’tidin o’rtadi jon yorga ayting,
Devonalig’imni pari atvorga ayting.*

Ikkinchı varianti bayozning 67^{a,b}-sahifasida:

*Arzimni, boshingiz haqi, dildorga ayting,
Mushtoqlig’im sho’xi sitamkorga ayting,
Sog’inganimi ko’zlari xummorga ayting,
Jon o’rtadi, qosid, boribon yorga ayting,,
Ya’nikim o’shal rastada attorga ayting,-*

tarzida keladi. Bunday tahririy o’zgarishlar qo’lyozma bayoz sahifasidagi matnda ham, uning hoshiyalaridagi matnda ham uchrab turadi.

Mazkur bayoz xususida A.SHokirov ham fikr bildirib: “Bayozning birinchi sahifasidan 85^a sahifasiga qadar tekstlar bir qo’l bilan yozilganligi nazarga olinganda bo’ o’zgarishlar boshqa shaxs tomonidan emas, shaxsan Muqimiyl tomonidan kiritilganiga shubha qolmaydi”²⁶ – deb yozadi. Olim bayozning faqatgina 85^a-sahifasidagi matnni Muqimiyning zamondoshlaridan biri qo’qonlik shoir Muhsiniy ko’chirib yozganligini bir qancha manbalar tahlili asosida isbotlaydi.

Bayozning xarakterli jihatı shundaki, ushbu manbaga tayanib, Muqimiyl asarlar to’plami nashridagi ayrim she’rlarning asliyatga muvofiq matnini tiklash mumkin. Bundan tashqari, bayozda shoirning shu paytgacha jamoatchilikka ma’lum bo’lmagan turli janrlarga oid she’rlari uchraydi.

Masalan, “Toleim” radifli she’r Muqimiyl asarlar to’plamining eng so’nggi nashrida (138-sahifa) 5 bayt bo’lib kelsa, 7521 raqamlı bayozning 51^a-sahifasida esa 6 bayt. Tushirib qoldirilgan misralar quyidagicha:

²⁶ Шокиров А. Кўрсатилган мақола. 223-бет.

*Sog 'inib Hazrat afandin²⁷ ko 'rgali borsam agar,
Soate, suhbatlarin qilmas tuyassar toleim.*

Xuddi shunday holni “Darkor emas” radifli she’r misolida ham kuzatish mumkin. Muqimiylar asarlar to’plamining eng so’nggi nashrida (201-sahifa) she’r matni 8 bayt. “Uloqchilar” radifli she’r Muqimiylar asarlar to’plamining eng so’nggi nashrida (410-sahifa) 8 bayt. 7521 raqamlı bayoz 43^b - sahifada esa 9 bayt tarzida uchraydi. Nashrga kiritilmagan bayt:

*Chopib uloqni hech ko 'rinmas ko 'zig'a jon,
Bir yiqlib, o 'lishga odaiting uloqchilar.*

Zavqiyning “Veksil” sarlavhali g’azaliga Muqimiylar muxammasi G’Karimov xizmati bilan chop etilgan shoir asarlar to’plamlarida 5 band holda uchraydi. G’ulom tomonidan nashr etilgan shoir tanlangan asarlarining 2 tasida 5 band. Va 1 tasida: 1942 yildagi nashrining 132-sahifasida esa 6 band bo’lib keladi. 7521 raqamlı bayozning 59^a-sahifasida ham to’liq 6 band. Ba’zi nashrlardan tushirib qoldirilgan bayt:

*To o 'tdi Rusiyoga Farg'onaning xiroji,
Vojgun bo 'lib yiqlidi xonlarni taxtu toji,
Har lahzai digar kun g'aybi falak mizoji,
Qoldi rivoj olmay Xo 'qand zarb royiji,
Bo 'ldi zaif islom, kofir zamoni chiqdi.*

Bayozdagı shu paytgacha jamoatchilikka ma'lum bo'limgan she'rлар matla'si:

*Janobi hazratim Fozilg'anixon,
Xudo davlatlarin qilg'ay farovon.*

(7 bayt)

Ey, gohi shahzodalar, mingan otingdin o'rgilay,
Hamnishiini to'ra ko'rgan davlatingdin o'rgilay.

(10 bayt)

²⁷ Бу байтда Муқимиј Соҳибзода Ҳазрат афандини кўзда тутган. Маълумки, шоир яшаган Қўйондаги “Ҳазрат” мадрасаси шу киши номига курилган.

Bayozda shuningdek, Muqimiyning Amiriyligiga taxmis qilingan:

*Jon qushig'a panohdur kokil,
Vaslig'a hazor rohdur kokil,
Manga shul ishtibohdur kokil,
Nega muncha siyohdur kokil,
Magaram dudi ohdur kokil, –*

deb boshlanuvchi 5 bandli muxammasi va bitta 6 bandli murabbasi uchraydi.

1325 raqamli bayozda XV – XIX asrda ijod qilgan shoirlardan Navoiy, Amiriyl, Muhyi, Muhayyir, Furqat, Zavqiy asarlaridan namunalar berilgan. Professor G'. Karimov mazkur bayozdagi Muqimiylar she'rlari hajmini 120 ta deb ko'rsatadi. Shuningdek, bu to'plamni ham Muqimiylar dastxat bayozlari qatoriga qo'shmaydi.²⁸ Bizning izlanishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, bayozda shoir she'rlari 120 ta emas, 127 tadir. 7521 raqamli qo'lyozma bayozdagi 110 ta she'r bu to'plamda shoir tahriridan so'ng qayta ishlanib ko'chirilgan. Birgina misol. 7521 raqamli bayoz 76^b - sahifasidagi "Etdi meni" radifli g'azalning 6-bayti:

*Yor ko'yida netong bo'lsa fuzun devonalig',
Naylayin siymob yanglig' beqaror etdi meni.*

1325 raqamli bayozning 156^b - sahifasida esa:

Ne ajab emdi fuzun bo'lsa agar devonalig',
Ul berahm ko'nglim olib, Majnun shior etdi meni. -

tarzida tahrir qilingan.

Mazkur bayozda "Choyfurush", "Moskovchi boy ta'rifida", "Voqeai Viktor", "Dar mazammati zamona" kabi she'rlar matni asliyatga muvofiq berilgan. "Dar mazammati zamona" sarlavhali she'r Muqimiylar to'plamining eng so'nggi nashrida 10 bayt. Bayozning 120^{a-b} - sahifasida esa 16 bayt holda keladi. Tushirib qoldirilgan 6 bayt kuchli tanqidiy ruhdaligi sababli nashrga kiritilmagan.

Xuddi shunday holni "Navbahor ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar" deb boshlanuvchi g'azalda ham ko'ramiz. Muqimiylar to'plamining eng so'nggi

²⁸ Каримов Ф. Муқимий ижодий меросининг манбалари. Муқимий. Асарлар тўплами. Т.: 1960, II том, 164-бет.

nashri 177-sahifasida 6 bayt, mazkur bayozning 150^a - sahifasida esa 7 bayt. Nashrga kirmagan bayt quyidagicha:

*Ul sitamgar zolimu bebok davron xazoni,
Loladek qat-qat ko 'ngilda qildi paydo dog 'lar.*

“Aylading sen ham” radifli g’azal Muqimiy asarlar to’plamining eng so’nggi nashri 131-sahifasida 6 bayt. Bayozning 177^b - sahifasida 7 bayt bo’lib keladi. Tushirib qoldirilgan bayt:

*O’shal panjshanba kun men ham chiqib Chorsuda ko ’z tutdim,
Kerakkim ko ’rsam erdi, sayri bozor aylading sen ham.*

Adabiyotshunos O.Jo’rboev Muqimiy asarlar to’plamida uchramaydigan bir g’azal matni haqida fikr bildirib, bunday yozadi: “Cho’ntak bayozning 33^{a-b}, 34^a varaqlarida yana bir noto’liq g’azal bo’lib, Muqimiy asarlari nashrlarida uchratmadik. G’azalning keyingi 5 bayti saqlangan bo’lib, bosh qismi ko’chirilgan varaqlar yo’qolgan.”²⁹-deya g’azal matnini keltiradi.

Mazkur g’azalning to’liq variantini 1325 raqamli bayozning 73^b-sahifasida o’qiymiz. G’azal 6 bayt bo’lib, matla’si quyidagicha:

*Bu muborak sayridin, ey sho ’x, ruxsoring kerak,
Xalq maqsudi tamoshlo, menga diydoring kerak.*

Muqimiyning “Sog’inib” radifli “Mehru ruxsoringga, jono, zordurman sog’inib”, “Mehr ruxsoring ko ’rarga zordurmiz sog’inib” kabi g’azallari adabiyot ahliga ma’lum. Shoiring jamoatchilikka ma’lum bo’lmagan xuddi shu radifdagи “Orazu xoling ko ’rarga zordurman sog’inib” deb boshlanuvchi 7 baytlik g’azali 1325 raqamli bayozning 36^a-sahifasida uchraydi.

№9309 raqamli bayozda Qo’qon shoirlaridan Furqat, Zavqiy, Muhayyirlar she’rlaridan namunalar berilgan. Unda Muqimiyning 10 ta lirik she’ri hamda 1ta satirik xarakterdagi asari mavjud. Bayozning ko’chirilgan yili aniq emas. To’plam oxirida bir hujjat ilova qilingan bo’lib, unda O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan o’qituvchi Po’latjon Qayumov, shoir Asqarali Hamraliev – Charxiy, Muqimiyning jiyani Ro’zimuhammad Do’smatovlar Obidjon A’lam iltimosiga ko’ra Muqimiy

²⁹ Жўрабоев О. Муқимиининг “Чўнтақ баёзи”. // Гулистон. 1999, 2-сон, 59-бет.

tomonidan tuzilganligini tasdiqlovchi imzo qo'yanlar. Bu fakt mazkur bayozning kotibi Muqimiy ekanligini ko'rsatadi.

Professor G'.Karimov 9309 raqamli qo'lyozma bayoz xususida bunday yozadi: "Kitobda uchraydigan Muqimiyning 10 ta asari shoirning o'z qo'li bilan yozilgan avtografdirlar, binobarin ular eng ishonchli va mo''tabar hujjat sifatida qabul qilinishlari kerak"³⁰.

Bayozdan "*Aqlu hush uchdi boshimdin ey pari, devonaman*" deb boshlanuvchi g'azalning to'liq dastxat varianti o'rinni olgan. Bu g'azal matni haqida professor G'.Karimov G'.G'ulom tadqiqotiga tanqidiy munosabat bildirgan edi³¹. Mazkur g'azal 7521, 1325 raqamli bayozlarda 6 bayt holda uchrasha, 9309 raqamli bayoz 169^b - sahifasida esa 8 bayt. Muqimiy yana ikki bayt qo'shib g'azalni takomillashtirgan. Tahrir jarayonida qo'shilgan ikki bayt quyidagicha:

*Xoma mujgon, ko'z qarosidin yozib rozi dilim,
Arzae qildim eshit, ma'yusu mushtoqonaman.
Navbati jomim to'la quyg'il karamdin, soqiyo,
Har qadamda to qilay yuz lag'zishi mastonaman.*

Xullas, Muqimiyning uch qo'lyozma bayozidagi she'rlar matni shu paytgacha to'liq tadqiq qilinmagan. Jumladan, ayrim she'rlar hanuzgacha ilmiy istifodaga olib kirilgan emas. Shu nuqtai nazardan, Muqimiyning o'z dastxati bilan yozilgan 7521, 1325, 9309 raqamli bayozlari shoir asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlashda asosiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Milliy adabiyotimiz tarixi rivojida Qo'qon adabiy muhitidan yetishib chiqqan ijodkorlar adabiy merosi alohida o'rinni tutadi. Bu muhit namoyandalari ijodidagi muvashshah-g'azallarni ilmiy asosda o'rganish adabiyot tarixining qorong'u jihatlarini yoritishda muayyan ahamiyatga ega. Maqsud Shayxzoda, Aziz Qayumov, Sharif Yusupov singari olimlarning bu mavzuga oid tadqiqotlari

³⁰ Каримов Ф.Муқимий ижодий меросининг манбалари. Муқимий. Асарлар тўплами. Т.: 1960, II том, 162-бет.

³¹ Каримов Ф. Муқимий ҳаёти ва ижодини ўрганиш тарихидан. Ўрта Осиё Давлат университетининг илмий асарлари. Ўзбек адабиёти. Янги серия, 15 китоб. Т.: 1957, 34-бет.

muvashshahning o'ziga xos xususiyatlarini yoritgani, unga doir munozaralarga oydinlik kiritgani bilan ahamiyatlidir.

“Muvashshah – lirikaning o'ziga xos janrlaridan bo'lib, lug'aviy ma'nosi arabcha so'z bilan bog'liq. Biror narsani aylantirib bog'lamoq, bezatmoq, e'tiborni unga qaratmoq ma'nolarini anglatadi. Bunday she'rlar g'arb, jumladan rus adabiyotida ham mavjud bo'lib, yunonchadan olingan “akrostix” termini bilan ataladi. Akrostix termini “chetki satr” ma'nosini anglatadi”³².

Muvashshah-g'azallarda yashiringan kishi ismi quyidagi usullar bilan hosil bo'ladi.

- 1) G'azal baytlaridagi birinchi misraning harflari olinadi.
- 2) G'azaldagi qofiyadosh misralarning birinchi harfi olinadi.
- 3) Baytlarining har ikki misrasi bosh harflari ketma-ket terilganda³³.

O'zbek adabiyotida asosan birinchi turdag'i muvashshahlar keng tarqaganini ta'kidlash kerak.

Maqsud Shayxzoda mumtoz she'riyatdagi muvashshahlar yuzasidan fikr bildirib, bunday yozadi: “Aniqlik uchun shuni ham qayd qilish kerakki, muvashshah kimning ismiga bog'langan bo'lsa, o'sha g'azalda ta'rif etilgan obraz ham aynan mazkur kishining o'zidir deb o'yash xatodir. Muvashshahdagi ism bu g'azalning kimga bag'ishlanganiga dalolat qiladi, xolos. Asarda tasvirlangan yor esa bus-butun boshqa bir kishi bo'lishi mumkin”³⁴.

Professor Sharif Yusupov Maqsud Shayxzoda fikrlarini davom ettirib, Furqatning Mulla To'ychi ismiga bitilgan bir muvashshahi haqida so'z yuritadi: “Ustoz Shayxzodaning keyingi fikri to'g'ri ekanini ko'rsatish uchun biz Zokirjon Furqatning mashhur hofiz do'sti Mulla To'ychi ismiga muvashshah qilingan “ustida” radifli g'azalidan ikki bayt keltirmoqchimiz:

O'smalik qoshlarmu yo shamshir qandin zanglig',

Yoki pistoqi to'kulmish rangi ahzar ustida.

³² Каримова С. Фуркат мувашшахлари. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, 4-сон, 44-бет.

³³ Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўstonи. – Т.: Маънавият, 128-бет.

³⁴ М.Шайхзода. Асарлар. Олти томлик. Бешинчи том. – Т.: Faafur Fulom nomidagi Ababiyet va san'yat nashriyoti, 1973, 91-бет.

Yuz uza kokulmudur har sori pechu tob ila,

Ganji husnungmu yotar yo ikki ajdar ustida.

Bu o'rinda tasvirlanayotgan o'smalik qoshlarni, har sori silkinuvchi kokillarni To'ychi hofizga nima aloqasi bor? Ma'lum bo'ladiki, g'azalda butun boshqa bir mahbuba tasvirlangan bo'lib, u To'ychi hofiz ismi bilan bezalgan va chamasi, ashula qilib aytish uchun hofizga taqdim etilgan”³⁵.

Muvashshah-g'azallar xususida akademik Aziz Qayumov: “Muvashshah-g'azalda keltirilgan sifatlashlar, shoirona tasvirlar ko'proq sharq adabiyotiga xos an'anaviy xarakterga ega. Muvashshah shoir mahoratining bir namoyishi”³⁶. – deb yozadi.

Furqat muvashshahlari haqida aytilgan bunday fikrlar Muhammad Aminxo'ja Muqimiy ijodidagi muvashshahlarga ham to'liq aloqador.

Umuman, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari adabiyotida muvashshahchilik an'anasi keng tus olgani ma'lum. Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Muhyi, Xaziniy, Rojiy, Zoriy, Qoriy singari ko'plab shoirlar ijodidagi muvashshahlar buning dalilidir. Bu davrning peshqadam shoiri Muhammad Aminxo'ja Muqimiy eng ko'p muvashshah ijod qilgani bilan ajralib turadi. Biroq shoir muvashshah-g'azallari hanuzgacha to'liq tadqiq etilgan emas.

Muqimiy muvashshahlari shoir hayoti va ijodini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Izlanishlarimiz natijasida Muqimiy ijodiy merosida 70 ta muvashshah-g'azal mavjudligi aniqlandi. SHoir asarlarining eng so'nggi nashriga³⁷ 50 ta muvashshah kiritilgan, 20 tasi esa shoir asarlari nashrlariga kirmay qolgan. Ulardan 8 tasi Ahmadjon Madaminov xizmati bilan 1997 yilda chop etilgan Muqimiy, Furqat va Zavqiyning yangi topilgan she'rlaridan tuzilgan “Yangi bayoz” kitobida berilgan. 1 tasi professor Sharif Yusupov³⁸, 1 tasi adabiyotshunos Otabek Jo'raboevlar³⁹ tomonidan matbuotda Muqimiyning yangi topilgan she'rlari sifatida chop etilgan. Adabiyot ahliga ma'lum bo'lмаган 10 ta muvashshah-g'azal

³⁵ **Юсупов III.** Мухий мероси. Тарих ва адаб бўстони. – Т.: Маънавият, 2003, 134-бет.

³⁶ **Қаюмов А.** Шеърият жилолари. – Т.: Ўқитувчи, 1997. –Б.45.

³⁷ **Каримов Ф.** Мукимий. Асарлар тўплами. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974, 76-бет.

³⁸ **Юсупов III.** Янги саҳифалар. // Гулистон, 1978, 2-сон, 23-бет

³⁹ **Жўрабоев О.** Мукимий дастнавислари ҳақида. //Адабиёт кўзгуси, 2000,5 -сон, 16-бет.

esa biz tomonimizdan Respublikamiz fondlarida saqlanayotgan turli qo'lyozma va toshbosma bayozlardan aniqlandi. Shundan shoirning Muhsinxon nomiga muvashshah bitilgan 7 baytli:

Mahvasho, hech kim sango mendek giriftor o'lmasun,

Kecha-kunduz sog'inib mushtoqi diydor o'lmasun —

matla'li g'azali №7512- qo'lyozma bayozda (167^a-sahifa) uchraydi. Mazkur she'r Alisher Navoiyning "Kimsa mendek dahr aro besabru orom o'lmasun" misrasi bilan boshlanuvchi g'azaliga nazira qilingan⁴⁰. Muqimiyy muvashshah-g'azali Navoiy g'azaliga nihoyatda shaklan va mazmunan uyg'unlashib ketganligini ta'kidlash kerak.

Muqimiyning "Sog'inib" radifli "Mehru ruxsoringga, jono, zordurman sog'inib", "Mehr ruxsoring ko'rarga zordurmiz sog'inib" kabi g'azallari adabiyot ahliga ma'lum. Shoirning jamoatchilikka ma'lum bo'limgan xuddi shu radifdagи "Orazu xoling ko'rarga zordurman sog'inib" deb boshlanuvchi 7 baytlik g'azali Oysoxon nomiga bitilgan muvashshahdir. She'r matni Muqimiyning №1325-dastxat bayozida(36^a-sahifa) uchraydi.

Ta'kidlash joizki, shoir asarlari nashrlarida aksar muvashshahlar matni tahrirga uchragan. Jumladan, P(F)o'lodxon kishi ismiga qilingan "Fikrimiz bog'idin unmas juz niholi orzu" misrasi bilan boshlanuvchi 8 baytli muvashshah-g'azalning maqta'si 5736⁴¹ raqamli qo'lyozma bayozda (106-sahifa) quyidagicha keladi:

Naqsh qildi xotami nazmig'a ismin harfini,

Ot chiqarsun deb, Muqimiyy, sohib jamoli orzu.

Muqimiyy asarlarining eng so'nggi nashrida esa (209-sahifa):

Naqsh qildi xotami nazmig'a vasfin durrini,

Ot chiqarsun deb, Muqimiyy, sohib jamoli orzu.—

tarzida uchraydi. Ko'rindaniki, "ismin harfini" birikmasi "vasfin durrini" birikmasi bilan almashtirilishi natijasida ismiga qilingan ishora ma'lum bo'lmay qolgan.

⁴⁰ Бу кўлёзма баёз 1893 йилда Каримбек Камий қалами билан тузилган.

⁴¹ Турсалиев А. Муқими жияни Рӯзимуҳаммадга хат. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2001, 12 январь.

Bunday holni Tojixon ismiga qilingan “*Topti husning ko’zgusi xatting g’uboridin safo*” matla’li 7 baytlik g’azal misolida ham ko’ramiz. G’azal maqta’si 5736 raqamli qo’lyozma bayozda (88^a -sahifa):

Nomiga aylar muvashshahlar muhabbatdin Muqim,

Bo ’lmasa odamga agarchandi parilar oshno—

shaklida kelsa. Muqimiylarining eng so’nggi nashrida (172-sahifa):

Vasfiga aylar g’azallar pok muhabbatdin Muqim,

Bo ’lmasa odamga agarchandi parilar oshno—

tarzida o’zgartirib berilgan.

Bu muvashshah-g’azalda har baytning toq misrasidagi Tojixon ismiga ishora qilingan harflar noshirlar tomonidan yashirilib, “nomiga” so’zi “vasfiga” so’ziga almashtirilgan. Bundan tashqari, g’azal misralaridagi ayrim so’zlar ham tahrirga uchragan.

Shoirning muvashshah-g’azal bitishiga sabab bo’lgan Tojixon ismli shaxs kim o’zi? Ijodkorning jiyani Ro’zimuhammad Do’smatovga yozgan maktubida quyidagilarni o’qiymiz: “...Ba’da janobi hurmatli boylaringizni xonadonlarini haqlariga faqirdin xolis duoyi xayr aytingiz. Mullo Azimjon va mullo Tojixon mazkurlarni ko’rsangiz salom ayting”.

Maktubda tilga olingan Mullo Azimjon va mullo Tojixon o’sha paytda Moskvaga qatnab savdogarchilik qilgan qo’qonlik boylardir. Shoir jiyaniga yozgan maktublarini shular orqali Moskvaga jo’natib turgan⁴².

Muqimiyning adabiy davrasini, yaqin do’stlari kimlar bo’lganini o’rganishda muvashshah-g’azallar katta ahamiyatga ega. Shoir muvashshahlarida ismi keltirilgan shaxslar Muqimiylarining hayotida alohida o’rin tutganini ta’kidlash mumkin. Bu kishilar ismi Furqat, Zavqiy, Muhyi va Haziniy muvashshah-g’azallarida ham ko’plab uchraydi. Jumladan, professor Sh.Yusupov Furqatning bir qancha muvashshahlarini aniqlab, bunday yozadi: “Shoirning yangi topilgan g’azallari orasida ham Xabodxon, Shodmonxon, Jamolxon, Normuhammad, Rashidxon

⁴² **Юсупов III.** Фурқат қалами изларидан. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1984, 13 ноябрь.

ismiga qilingan muvashshahlar uchraydi. Shulardan Jamollidin (Jamolxon) shoirning toshkentlik ma'rifatparvar do'stlaridan bo'lgan⁴³.

Adabiyotshunos Sanobar Karimova ta'kidlashicha: "Furqat muvashshahdan, shunchaki she'riy shakl sifatida foydalanmadni, uning muvashshahlari adabiyotimiz tarixi, shuningdek, shoirning hayoti va ijodini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Furqatning "Orazing qachon ko'rди" g'azali Abduqodirxon nomiga; "Ko'zing" — g'azali Islomxon nomiga; "Shahlo ko'zлaring" — Mahkamxon; "Kokiling" — Rashidxon; "Ishq otashi" — Odilxon nomiga yozilgandir. Ismi bitilgan bu kishilarni Furqat shaxsan tanigan, bilgan bo'lishi shubhasizdir"⁴⁴.

Muqimiyy g'azallarida ham yuqorida nomlari zikr etilgan shaxslar qayd etilganini ko'ramiz. Bu muvashshahlarning e'tiborli jihatni shundaki, bir kishi ismiga bir qancha muvashshahlar bitilgan. Bu esa, shoirlarning ularga hurmati nihoyatda baland bo'lidan dalolatdir. Jumladan, Rashidxon ismiga Muqimiyning "kelur" radifli 3 ta muvashshah-g'azali mavjud. "Bor" radifli g'azal — Normuhammad, "Gapur" radifli g'azal — Jamolxon nomiga muvashshah qilingan.

Bulardan tashqari, Muqimiyning Asrorxon, Yusufxon, Qo'zixon, Usmonjon, Muhammadjon, Komilxon, Tillaxon, Mullajon, Nazirxon, Namozxon, Solixjon, Jabborxon, Hoshimjon, Norsaxon, Adolxon, Siddiqjon, Mansurxon, Abdullaxon, Nizomxon, Sultonxon, Qurbonxon, Qosimjon, Akbarxon, Toshpo'lotxon singari yaqinlari nomiga bitilgan muvashshah-g'azallari shoir adabiy davrasini o'rganishda alohida ahamiyatga ega.

Muqimiyning "*Mehr ruxsoring ko'rarga zordurmiz sog'inib*" deb boshlanuvchi muvashshah-g'azali Muhammadjon Makay ismiga bitilgan.

"Mamajon Makay — asli ismi Muhammadjonbek, otasining ismi Qosimboy. Qo'qon atrofidagi "Makay" yoki "Makayston" qishlog'idan. 1871 yilda shu

⁴³ Йосупов III. Фурқат қалами изларидан. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1984, 13 ноябрь.

⁴⁴ Каримова С. Фурқат мувашшахлари. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, 4-сон, 45-бет.

qishloqda tug'ilgan... Muqimiy Mamajon Makayga bir qator she'rlar bag'ishlagan va uning san'atkor sifatidagi xizmatlarini taqdirlagan.”⁴⁵.

Shoirning “Nozanin ko'p, o'zidek olajanobi bormikin” va “Nigora maxvashe kim kam bo'lur mundog' pari paykar” misralari bilan boshlanuvchi ikki g'azali Nizomxon ismiga muvashshah qilingan.

“Nizomxon – Mulla Nizomiddin Sayfiddin xo'ja o'g'li. U 1868 yillar atrofida Namanganga yaqin “Shamsiko'l” degan qishloqda tug'ilgan. Nizomiddin Namangandan uylangan va shu yerda turg'un bo'lib qolgan, 1935 yillar atrofida shu yerda vafot etgan. Nizomiddin o'z zamonasining mashhur san'atkorlaridan biri bo'lib, “Nizomxon” nomi bilan shuhrat qozongan.U atoqli mashshoq bo'lishidan tashqari, bastakor sifatida Muqimiy she'rlariga muzikalar yozgan. Nizomxon Muqimiyning do'sti namanganlik shoir Nodim bilan yaqin aloqada bo'lган. U Nodim orqali Muqimiy bilan tanishgan”(o'sha joyda). Muqimiyning yangi topilgan she'rlari orasida “Yuzmu tobon, charx uza yo mehri anvardakkina”⁴⁶ va Furqatning “Yuzung guldin musaffodur, labing rangi xinodin ham”⁴⁷ matla'li g'azallari Yusufxonga muvashshah qilingani kuzatiladi. Bu shaxs haqida professor Sh.Yusupov quyidagicha ma'lumot beradi: “Furqat bilan Yusuf boyvachchaning do'stlashuvida, avvalo, uning ham she'riyatga qattiq qiziqqanligi, zamonaviy ilm-fanni egallah yo'lidagi fidoyiligi, ikkinchidan esa, otasi asl qo'qonlik bo'lganligi ham bois bo'lgan bo'lsa ajab emas. Rahbarniso momo otalarining Furqatdan tashqari Muqimiy, Abdulla Qodiriy, To'ychi hofizlar bilan ham qadrdon bo'lganligi, ular Yusuf boyvachcha hovlisida tez-tez bo'lib, otalari bu aziz do'stlari haqida umrining oxirigacha tinmay hikoya qilganligi to'g'risida to'lib-toshib gapirdilar.”⁴⁸.

Muqimiy va Furqat muvashshah-g'azallarida ismi keltirilgan shaxslar Muhyi va Haziniy muvashshahlarida ham uchraydi. Professor Sh.Yusupov ta'kidlashicha, Muhyining 1911 yilda Toshkentda chop etilgan forsiy va turkiy devonida

⁴⁵ Каримов Ф. Муқимий. (Монография) – Т.: 1970, 67-бет.

⁴⁶ Каримова С. Фурқат мувашшахлари. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, 4-сон, 46-бет.

⁴⁷ Каримова С. Фурқат мувашшахлари. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, 4-сон, 47-бет.

⁴⁸ Юсупов Ш. Мухий мероси. Тарих ва адаб бўстони. Т.: Маънавият, 2003,135-бет.

Yusufjon, Qorixon, Mahmudxon, Sherqo'zixon, Ortiqxon, Olimxon, Mirfayozxon, Soatxon kabi zamondoshlari nomiga muvashshahlar bitilgan. Haziniy muvashshahlari haqida O.Jo'raboev bunday yozadi: "Haziniy ijodida ham 25 ta muvashshahlar uchrashini va ular To'tixon, Ibrohimxon, Isxoqxon, Jo'rabek, Jo'raxon, Inomjon, Mo'minjon, Muhammadjon va Nazirxonlar ismiga bitilgan"⁴⁹.

Umuman, Qo'qon adabiy muhiti namoyandalari, xususan, Muqimiy ijodidagi muvashshah-g'azallar tadqiqi shoirning yaqin do'stlari kimlar bo'lganligi, shuningdek, bu davr ijtimoiy va adabiy hayoti, shoirning adabiy davrasи, ijodiy hamkorligi kabi ko'plab masalalarga oydinlik kiritish imkonini beradi.

⁴⁹Жўрабоев О. Хазиний Тўра. (Монография). – Т.: 2007, Фан, 86-бет.

II BOB. USTOZLARDAN BAHRA OLIB...

2.1. Muqimiy hajvlarining janr xususiyatlari.

Muqimiy satirik asarlariga mavzuni real qayotdan, o'zi guvoh bo'lган voqealardan, jiddiy o'zgarishlar yuz berayotgan davr ruhidan oldi. U ana shu hayotiy ma'lumotlarni satirik tahlil etish, salbiy holatlarga munosabatni belgilash, ayniqsa, satirik mahoratni oshirishda o'tmish an'analardan, Navoiy, Mashrab, Turdi, Gulxaniy, Maxmur kabi shoirlarning ijodidan ta'sirlandi, bahramand bo'ldi. O'tmish satirik an'analarning shoir tomonidan qabul etilib, o'z zamonasi ruhida rivojlantirilganini isbotlovchi faktik dalillar ko'plab topiladi. Masalan, Muqimiy ilk bor Alisher Navoiy boshlab bergen, keyinchalik esa Mashrab, Turdi, Maxmurlar davom ettirgan g'azal janrida satira yaratish tajribasini o'zlashtiradi, o'zi ham qator kuchli satirik g'azallar yozadi. Satirik muxammaslar to'g'risida ham shuni aytish mumkin. Biz uning dastlabki namunalarini mohir hajvchi Turdi — Farog'iy ijodida uchratamiz.

Muqimiy esa bu an'analarni davom ettirib o'z davrining ko'pgina illatlarini kuchli satira orqali fosh etuvchi muxammaslarni yaratadi. Bugina emas, Muqimiy o'tmish shoirlar ijodidagi satiradan ijtimoiy hayot va tuzumdag'i nuqsonlarni, shaxslar tabiatini va faoliyatidagi salbiy belgilarni qoralash va sharmanda etish usullaridan ham, mavjud qabohat va razolatni ro'y-rost ko'rsatishdagi izchillik, qat'iylik va nafratli munosabatdan ham, satirik obrazlarning butun borlig'ini yaqqolroq va ishonchliroq ko'rsatuvchi hayotiy holatni kashf etish mahoratidan ham, ob'ektga lo'nda, ammo kuchli haqoratlovchi tavstif berish san'atidan ham o'rgandi. Ba'zan bu o'rganish ayrim asarlarda shu darajada ravshan ko'rindaniki, uni qayd etish uchun dalillarni taqqoslashning o'zi yetarli bo'ladi. Masalan, Alisher Navoiyning "Hayrat-ul-abror" dostonidagi shohning zo'ravon, zulmkor amaldorlarining qishloqdagi faoliyatini tasvirlovchi epizod bilan Muqimiyning "Tanobchilar" satirasidagi qishloqqa chiqqan chor amaldorlari faoliyatini

ifodalovchi misralar ana shunday namunalardan biridir. Har ikki shoir epizodlari qiyoslanganda mavzuning o'xshashligi, ob'ektlarga munosabatning, satirk ruhning umumiyligi, hatto holat va fosh etuvchi detallariing biri-ikkinchisiga juda yaqinligi yuzaga chiqadi. Muqimiy o'zining o'ta zamonaviy va to'la original "Tanobchilar" satirasidagi kuchli epizodni yaratishda, shubhasiz, ustoz Navoiyning ta'sirida bo'lgan. Navoiyning satirk mahoratidan ijodiy o'rganib, shoir o'z davri materiallarini satirk tahlil etadi, o'ziga zamondosh amaldorlarning zo'ravonligi va zulmkorligini fosh qilib, ijtimoiy tuzumdagiadolatsizlikni hayotiy misollarda haqqoniy ko'rsatadi.

Muqimiyning o'tmish satiradan ta'sirlanganligini isbotlovchi yana bir misol uning "Hapalak" qishlog'i haqidagi Maxmur g'azaliga taxmis bog'lashida ko'rindi. Bir qator o'tkir satiralar muallifi Maxmur o'zining bu g'azalida Umarxon davridagi mehnatkash xalqning ayanchli ahvoli, sansanoqsiz soliqlar, o'lka, qishloq, shaharlarni vayronaga aylantirganini Hapalak misolida juda jonli tasvirlagan edi. Bu g'azal keyingi davrlarda ham o'zining zamonaviylik ahamiyatini yo'qotmadidi. Chunki, Muqimiy davrida Maxmur yashab ijod etgan davrdan xalq ommasini yashash sharoitining yaxshilanishi ma'nosida zarracha ham o'zgarish bo'lmedi, aksincha, xalqning turmushi ikki yoqlama zulm ostida yanada og'irlashdi. Shuning uchun ham Muqimiyning xuddi shu satirk g'azalga murojaat etishi tasodifiy emas: shoir Maxmur asari o'z davrining ham holatini realistik tasvirlaydi, deb hisoblaydi va ayni zamonda, har baytga ulangan o'z misralari bilan salafining g'azalini yangi hayotiy faktlar bilan boyitib, mazmunini chuqurlashtiradi, satirk fosh etish ruhini kuchaytiradi. Natijada mazmun, maqsad, shakl, intilish va g'oya jihatidan bir butun, mukammal va aytish kerakki, endilikda Muqimiy qalamiga mansub yangi satirk muxammas maydonga keldi.

Satirk g'azallarga taxmislari to'g'risida so'z borar ekan, satiraning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqadigan bir muhim holatga alohida urg'u

berish zarur ko’rinadi. Gap shundaki, satirik g’azalda (umuman barcha satirik asarlarda bo’lganidek) shoirning g’oyaviy pozitsiyasi, voqeahodisalarga munosabati aytaylik, ishqiy- lirk g’azaldagiga nisbatan aniqroq yuzaga chiqadi, unda shoir “men”ining bahosi, dunyoqarashi, hukmi bo’rtib ko’rinib turadi. Shunday ekan, satirik g’azalga taxmis bog’laydigan ikkinchi bir shoir, avvalo va birinchi navbatda, g’azal muallifining g’oyaviy yo’nalishi, bahosi, asardan chiqarayotgan hukmiga to’la- to’kis qo’shilishi lozim, uni birlamchi asos sifatida qabul qilishi shart. Aks holda, to’la ma’nodagi (g’azalga har jihatdan hamohang) taxmisning yuzaga kelishi mumkin emas.

Muqimiyning taxmisidan chiqadigan birinchi xulosa shuki, u Maxmur g’azalining ham g’oyaviy yo’nalishi va uni ifodalash usullari bilan, ham detallarni tanlash yo’li va butun g’azalga berilgan satirik ruh bilan batamom kelishgan va uni bo’lajak taxmisning asosi, tayanch nuqtasi sifatida qabul qilgan. Har jihatdan Maxmur g’azali bilan birikib-chatishib ketgan misralarning yaratilishi ana shundan dalolat beradi. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi misolni keltiramiz:

Ajiriq ildizini mayda kelilarda⁵⁰ tuyub,

Qaynatib, kunda ichib, derlar sumalak.

By baytga, g’azalning boshqa misralari kabi, Maxmur juda katta mazmunni ifodalash vazifasini yuklagan. Shoir “qishloq ahli niqoyatda qahshoq, ayanchli hayot kechiradi; uning yeyishga noni, ichishga oshi yo’q; dehqonlar och-yalang’och, xor-zor edi” mazmunini favqulodda mahorat bilan kichik bir detalda hayotiy va ishonarli ifodalay olgan. O’sha ayblovchi mazmun “ajiriq ildizini qaynatib yeyishga” mahkum etilishning o’zida butun salmog’i bilan keskin va alohida ta’kidlash kerakki, ta’sirchan aksini topa olgan. Dehqonlarning “kundalik” yemishlari shu ekan, kitobxon ularning turmush sharoitlari haqida aniq mantiqiy xulosaga kela oladi. Katta ayblovchi, fosh etuvchi mazmunni kichik, ammo, juda xarakterli detallarda

⁵⁰ Maxmur bu so’zni “o’g’ur” tarzida ishlatgan. Bu haqda qarang: **Махмур**. Танланган асарлар. Т., 1971.15-бет.

kitobxonlarga yetkazish san'atidan Maxmur butun g'azal davomida foydalanadi, natijada yaxlit misralar ham ramziy ruh egallaydi.

Aytaylik, shoirning “tovug'i ignachiyu, o'rdagu g'ozi — kapalak” misraini so'zma-so'z tushunish, shubhasiz, xato bo'ladi. Yuqorida keltirganimizdek ushbu misrada ham, qishloqning xaroba va vayronazorga aylanganiga aniq ishora etilmoqda. Bu misra ham — dehqonlarning og'ir moddiy turmushini hayotiy detallarda yaqqol ko'rsatuvchi dalil sifatida o'qiladi.

Muqimiy Maxmur g'azaliga taxmis bog'lar ekan, unga shakl tomondangina yondashmadi,— u g'azal mag'zidagi ana shu qoralovchi, fosh etuvchi ruhni qayd etdi, asos sifatida qabul qildi. Natijada shoir “ulagan” misralar Maxmur misralari bilan mantiqiy aloqaga kirishib uzviy birlikni tashkil etdi, yagona mavzuda yaxlit g'oya, yaxlit mazmunni ifodalovchi muxammas bandlariga aylandi.

Diqqatga sazovor joyi shundaki, Muqimiy misralari ham xuddi Maxmurniki kabi, ko'p o'rinda chuqur mazmunni ramziy iboralarda ifodalab keladi. Aytaylik, qishloqning “erkak-ayol” aholisining “issiqda kuyub yantoq o'tin chopishlari”, “zog'ora nonini topsa” (“agar topsa”!) “qand o'rnida ardoqlab yeyishlari”, “jazi yo'q qovoq sho'rvani suyub ichishlari” xuddi “ajiriq ildizini qaynatib” iste'mol qilishlari haqida misradagidek, umum ocharchilik va nochorlik holatini real tasvirlab keladi:

Chopishur yantog' o'tun mardu zan issig'da kuyub,
Yer zog'ora nonini topsa otin qand qo'yub,
Jazi yo'q sho'rva kadu eydigan oshida suyub,
Ajiriq ildizini mayda kelilarda tuyub,
Qaynatib, kunda ichib, otini derlar sumalak.

Muqimiy misralari Maxmur bayti goyasini, ayblov ruqini yanada rivojlantirgani, yanada konkretlashtirgani, hayotiy dalillar bilan boyitib, shaklan va badiiy jihatdan ham bayt bilan singishib ketgani keltirilgan misoldan yaqqol ko'rinish turibdi. Bu besh misra birgalikda, taxmisning

boshqa bandlari kabi, o'tmish davri qishlog'ining, uning mehnatkash dehq-onlarining qorong'u hayoti lavhasini yorqin gavdalantiradi, "vayrona, teshik kapa, olachuq, katalaklar" dangina iborat bo'lgan, suvsizlikdan cho'lu biyobonga aylangan qishloqlarniig tipik manzarasini badiiy bo'yoqlarda ishonchli chizib beradi.

Muqimiy bunday ayanchli holatga, xuddi Maxmur kabi, betaraf, loqayd qaramaydi. Shunday mavzuning g'azal (endilikda muxammas) uchun tanlanishining o'zidayoq yuzaga chiqqan avtor (avtorlar) pozitsiyasi — o'lkaning vayrona, xarobazorga aylanishidan qayg'urish, achinish ohangi, qishloq mehnatkashlariga hamdardlik va ayni zamonda, shunday holatdan norozilik g'oyalari g'azal (taxmis) ruhiga singib ketgan:

Ko'chti xalqi yopinib ko'hna, uvoda to'nini,
Charxdin o'tkarishib ohu fig'onu unini,
Solmasun dushmana ham boshig'a kelgan kunini,
Kecha nogoh eshitib shuhrati tillo pulini,
Hapalak qo'rqishidin uchdi misoli kapalak.

Muqimiyning bu taxmisdagi katta yutug'i shundaki, u Maxmur g'azalini o'z davri nuqtai nazaridan to'ldirib, g'oyaviy chuqurlashtirgan, badiiy-tasviriy vositalariga har jihatdan muvofiq misralar yaratishga muvaffaq bo'lib, mantiqiy izchilllikka erishadi.

Maxmur g'azalining birinchi baytida hukmdorga murojaat etiladi. Bunda u eng yuksak unvonlar bilan ataladi. Muqimiyning shu matлага qo'shgan uch misraiga nazar tashlansa, ularning xuddi shu ruh, shu usul bilan yaratilganligini, ba'zan esa kesatiqning yanada keskinroq xarakter kasb etganligini qayd etish mumkin. Muqimiy taxmisidagi hukmdorning "odilligi" haqidagi, "arra"ning zulmidan bog'u "chakalak"larning omonligi to'g'risidagi "ijobiy" misralarning chin ma'nosи salbiy bo'lib, Maxmur bayti ohangida o'qiladi:

Ko'rdi sandek shohi odilni na insu na malak,
Arraning zulmidin emin hama bog'u chakalak,

Yangi oy ko'ziga xasmingni oturg'a kamalak,
Ey jahondori zafar, kavkabai davri falak,
Eshiting qissai qishlog'i harobi Hapalak!

Biz Muqimiyning Mahmur razaliga tahmis borlashi misolida utmish adiblar ijodidagi satirik an'ana- lardan baqramand bulib, ulardan ijodiy ta'sirlan- ganligini kurib utdik. Bunda eng muqim belgisi shundaki, Muqimiylar salaflari merosidan o'rganar ekan, masalaga ijodiy yondashadi, o'z davri, sharoiti materiallariga asoslanadi. Shuning uchun ham, masalan, Maxmur g'azaliga bog'langan taxmis Muqimiyning eng kuchli asarlaridan biri qisoblanib, XIX asr II yarmi va XX asr boshlaridagi o'l kamiz qayotini, qishloq dezqonlarining og'ir turmushini, vayronagarchilik va xarobazorlikni yorqin bo'yoqlarda ishonarli tasvirlaydi. Qisqasi, Muqimiylar lirika sohasida bo'lganidek, satirada ham o'tmish adabiyotymiz namoyandalarining ilg'or an'analari ta'sirida bo'ldi, ularni boyitdi, rivojlantirdi. Ammo, Muqimiylar merosidagi kuchli satirik yo'nalishni ana shu ta'sir bilangina izohlash no'o'g'ri bo'ladi. Satira Muqimiylar ijodida shoir dunyoqarashi, ideali, g'oyaviy-estetik, prinsiplari bilan adolatsiz sharoit o'rtasidagi jiddiy ziddiyatning mevasi sifatida yuzaga keldi. Xuddi shu jihatdan ham shoirning satirik merosi alohida ahamiyat kasb etadi — u o'z davrining ilg'or qarashlarini ifodaladi hamda xalq manfaatlari pozitsiyasidan juda izchil va yuksak badiiylik bilan satirik-tanqidiy tahlil etdi.

2.2. Muqimiylar ijodida ijtimoiy satira va humor va badiiy mahorat masalalari.

Mehnatkash omma, dehqonlarning og'ir iqtisodiy ahvoli, qishloqlarning "hapalak"lar darajasiga tushib qolganligi, ikkiyoqlama zulm ostidagi huquqsiz hayot, adolatsizlik ijtimoiy hayotning har sohasida hukmron ekanligi va boshqa shu kabilar Muqimiylar satirik merosida yetakchi mavzulardan biriga aylangan. Shoirning ilg'or dunyoqarashi nuqtai nazaridan, tuzum va adolat haqidagi ijobjiy ideali pozitsiyasidan yoritilgan bu yetakchi mavzu doirasidagi masalalar uning

deyarli barcha satirik asarlarida qo'yiladi, rang- barang hayotiy materiallarda aniq tanqdiy maqsad bilan ishlanadi. Bu esa shoir satirasiga chuqur ijtimoiylilik ruhini singdiradi. Chindan ham, Muqimiyning bir qator satiralarini o'zbek ijtimoiy-siyosiy satirasining birinchi namunalari qatoriga kirlitsa bo'ladi. "Tanobchilar", "Voqeai ko'r Ashurboy hoji" kabi satirik asarlarda ijtimoiy-siyosiy masala — jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, tabaqalanish, hukmronadolatsizlik, inson tengligi, insoniy huquq kabi masalalar berilgan. O'zbek adabiyoti tarixida Muqimiy siyosiy masala — saylov mavzusini birinchi bo'lib badiiy adabiyotga olib kirdi. "Saylov" asari bilan adabiyotimizda bu mavzuning keyinchalik (Zavqiy va Hamza) yanada chuqur ishlanishiga yo'l ochdi.

Muqimiy jamiyatning ikki qutbga ajralganligini, unda ijtimoiy tengsizlik hukm surishini ko'ra oldi, o'zi yashab ijod etayotgan hayotda boylar va kambag'allar, to'qlar va ochlar, katta yer egalari va bechora dehdonlar, zavod- fabrika egalari va ular qo'lida ishlovchilar mavjudligini anglatdi hamda ularni o'z asarlarida aks ettirdi. Bu o'rinda zavod egasi "Maskovchi" boy Hodixo'ja va uning korxonasidagi ishchilar haqidagi Muqimiy misralarini eslash kifoya. Shoirning satirik merosi zaminida mehnatkash xalqqa, kambag'al dehqonlarga samimiy xayrixohlik, tekinxo'r tabaqa vakillariga kuchli nafrat singib ketgan. Muqimiy satiralarida jiddiy ijtimoiy masalalarning qo'yilishi hamda g'oyaviy-siyosiy yetuklik darajasida hal etilishi uning so'nggi asarlaridan biri "Voqeai ko'r Ashurboy qoji" asarida yaqqol ko'rindi. Shoir bu asarida axloqiy-maishiy buzuq Ashurboy hojining og'ir jinoyati haqida so'zlaydi, "Farg'onada nomdor, moldor" bo'lgan bu boyning iflos qilmishlarini yopib ketish uchun hukmron sinflarning unga qilgan qomiyliklarini fosh etadi... Ashurboy hoji tun qorong'uligida kambag'al bir kishining uyiga yashirinchha kirib, jinoyat qilayotgan vaqtida qo'lga tushadi. Lekin jinoyatchining boy bo'lganligi uchun ham butka boshi va mingboshilar uni qutqazib qolmoqschi bo'ladilar, bu shoirning katta yutug'idir:

Qorovul, istarshi-yu, mingboshilar
Chopib keldilar deb: “Nachuk, kor-zor?”
Bosib kirdilar: “Bu nachuk dod?” deb
Qorov’ulning uyiga beixtiyor.
Ko’rib dedilar: “Boy ekan, qochiring!”

Misralardagi “Chopib kelishlari”, “bostirib uyga kirishlar” detallarida amaldorlarning shunday kutilmagan holatida o’zlarini tutishlari yorqin ifodalangan: bu detallarda ulardagi hovliqish va tahlika sezilib turadi, uy egasiga nisbatan zo’ravonlik va boyga nisbatan laganbardorlik ko’rinadi.

...Haloyiq Ashurboy hojini qochmoqchi bo’lganida tutib oladi, uni toshbo’ron qilmoqchi bo’ladi. Bu o’rinda hukmron adolatsizlik o’z kuchini ko’rsatadi. Hatto pristav va qozilar, hokimlar ham jinoyatchi boy tarafiga o’tadilar. Muqimiylar satirada hukmron sinflarning bu zo’ravonliklariga norozilik bildiradi, adolatsizlikni qattiq qoralaydi. Adolatsizlik esa har sohada, turli shakllarda ko’rinardi.

Pul, boylik, kapital asosiga qurilgan jamiyatning ijtimoiy illatlarini shoir shunday ayovsiz fosh etadi, bosh mohiyatini aniq xarakterlaydi. Ushbu satirada divdatga sazovor bir bayt bor. Unda shoir “boy so’zi”ning “zo’r e’tibor” topishining asl sabablaridan biriga — pul, oltinning u tuzumda hal qiluvchi kuchiga ishora etadi. Ashurboy hoji “g’ubor”ni yuvish uchun barcha amaldorlarga “nihoniy” oltin-kumushlar (“siymu zar”)ni “suv kabi” ishlatadi, pora beradi.

Nihoniy sochib siymu zar suv kabi,
Bosildi mashaqqat bilan bu g’ubor.

Poraxo’rlik esa u davrdagi hukmron umum adolatsizlikning aniq bir ko’rinishi bo’lib, deyarlik rasmiy tus olgan, odatiy normal bir holga aylangan edi. Xoh katta, xoh kichik—barcha amaldorlar pora bilan ishni bitiradilar, sullohlik bilan pul talab qiladilar. Shuning uchun bo’lsa kerak, Muqimiylar satiralarining bir qator namunalarida jamiyatdagi bu joriy illatni fosh etuvchi bayt-epizodlar bor. Poraxo’rlik, mansab-amallarni sotib olish,

shu maqsadda turli hiyla- nayranylarni ishlatish, ayniqsa, “saylovlar” vaqtida avjiga chidadi. Bular Mudimiy satirik merosida alohida o’rin egallovchi «Saylov» satirasida juda ixcham misralardi ifodasini topgan. Aytib o’tganimizdek, bu asarni o’zbek adabiyoti tarixida siyosiy satiraning ilk namunalaridan hisoblash mumkin. Avvalo, satirik tahlil uchun shunday mavzuning—o’lkada endigina joriy dilingan burjua saylov sistemasining dalbakilagini aniq niyat — qoralash madsadida “xo’ja ko’rsin”ga qilinayotgan bir tadbir ekanligini fosh etish maqsadida mavzu qilib tanlanishining o’zi, hech shubdasiz, Muqimiy dunyoqarashining yetukligidan darak beradi, ijodining realistik va xalqchil mohiyatini ko’rsatadi.

G’azal shaklida yozilgan, yetti baytdan iborat bo’lgan bu asar burjuacha “erkin” sayloving asl basharasini ochib tashlaydi, amaldorlarning “saylov” jarayonidagi turli hiyla-nayranglarini fosh etadi. Bunday “saylovlar”da oddiy xalq vakillari qatnashish (saylanish u yodda tursin) huquqiga ega emaslar. Shuning uchun ham u ikki guruh boylar, amaldorlar o’rtasida bo’ladigan mojarodan boshqa narsa emas. Satirada yakka bir amaldor emas, balki har qanday jirkanch yo’llar bilan bo’lsa-da mansab egallahsga intiluvchi amaldor-boylar guruhi fosh etiladi. Shoir ularning “saylov” davridagi ichki kechinmalarini, mansab uchun “terak bargidek titrab” - qaqshashlarini, ruhiy holat-kayfiyatlarini, hovliqishlarini mohirlilik bilan tasvirlaydi.

Qachonkim, bo’ldi hokim amri birlan ibtido saylov,
Amaldor ahli boshiga bo’lib keldi balo saylov.
Teraklar bargidek titrab jamii qozi, mingboshi,
Degaylarkim: “Yuzini teskari qil, ey xudo saylov!”
Sochib qarzi-quvola, pul ko’tarib, istayub mansab,
Bo’lolmay ko’p kishini sindirib qildi gado saylov.
Agar ming hatmi qur’on etsalar qo’ylar suyub arzir,
O’lumdin qoldi qolganlar — bo’lib erdi vabo saylov.

Shoirning ta'kidlashicha, bu “balo, vabo saylov” mahalliy amaldorlarning ochiqdan-ochiq poraxo'rlik qilib, mansab sotish bilan shug'ullanishlariga qonuniy- rasmiy yo'l ochib berdi. Muqimiy mehnatkash xalq uchun hech qanday yengillik, huquq bermaydigan bunday “saylov”ni ortiqcha g'alva deb hisoblaydi: Uning tezroq tugashini va shahar ahlining mojarolardan tinchishini istaydi.

Olurg'a pora ellikkoshilar mingboshi, qozidin,
Ijobat bo'ldi-bo'ldi, aylar erdilar duo saylov.
Taloshi joh aylabg'ot chopib olmay dame orom,
Musulmonlarni rangin ayladi chun qahrabo saylov.
Muqimiy og'ridi boshlar xaloyiq guftu go'yidin,
Shahar tinchib qolurdi bulsachi emdi ado saylov!

Muqimiyning bu asari mavjud tuzumning tartib-qoidalarini, undagi qalbakilik va poraxo'rlikni, siyosat olamidagi hiyla-nayranglarni fosh etuvchi g'oyaviy va badiiy jihatdan yetuk satiralar orasida alohida o'rinni egallaydi.

Muqimiy ijodida, birinchi navbatda, uning satirik merosida o'lka iqtisodiy hayotida, ijtimoiy-falsafiy ongida jiddiy siljishlar yuz berayotgan davrning ruhi, sharoit muhri chuqur iz qoldirgan. Shoir o'zi guvoh bo'layotgan tuzum va xalq qayotidagi o'zgarishlarni ziyraklik bilan kuzatib bordi, yangiliklarning, tartib qoidalarning chin mohiyatini xalqchil, ilg'or g'oyalar nuqtai nazaridan tushunishga intildi. Burjuacha saylovdagi qalbakilik va muttahamlilikni fosh etuvchi satira xuddi shunday yondashuvning mevasidir.

“Maskovchi boy ta'rifida”, “Veksel”, “Dar mazammati zamona”, “Lyaxtin” hamda «Viktor» siklidagi satiralar “Saylov” satirasi kabi shoir zamonasining muhim masalalarini turli qirralarda qamrab oladi.

“Maskovchi boy ta'rifida” satirasi bu jihatdan xarakterli. Shoir bu asarida ham aniq tarixiy sharoit, real voqelik “pishirib” bergen mavzuni tanqidiy-satirik usulda taqlil etadi. ...Uchar mahalliy boylar rus kapitalistlari va banklaridan katta-katta kreditlar olib, birlamchi shakllarda bo'lsa-da,

“o’z” zavod-fabrikalarini sura boshladilar. Shakllanayotgan bu milliy burjuaziya, bir tomondan, rus kapitaliga bog’liq bo’lib, iqtisodiy jihatdan unga qaram bo’lsa, ikkinchi tomondan, o’zi mustaqil, o’z bozoriga o’zi xo’jayin bo’lishga, daromadni o’zigina egallashga urinar edi. Natijada, o’zaro kuchli raqobatda bo’lgan milliy burjuaziya rus kapitalistlari bilan ham raqobat qila boshlaydi. Ammo, juda ko’p hollarda mahalliy kapitalistlar krizisga uchrab “sinar” edilar. Muqimiyning bu satirasida kapitalistik munosabatlarning doimiy yo’ldoshini Hodixo’ja eshon nomli kichik boyning “sinishi” misolida ishonarli tasvirlaydi.

Hikoyat qilay, turfa davron ekan,
Xaloyiq hama mahvu hayron ekan,
Chiqib yangi maskovchidin boylar,
Sinar o’tmayin ba’zisi oylar.
Xususanki, eshoni Hodixo’jam,—
misralari bilan boshlanadi bu asar.

Hodixo’ja satirada maqtanchoq, aqmoq, pul-boylik quli, hiylakor, zolim, sudxo’r, axloqiy buzuq shaxs sifatida gavdalanadi — unda burjuaga xos barcha salbiy belgilar mujassamlashgan. Satirk shoир bu asarida zavod egalari, fabrikantlar muomalasi asosida avvalo kapital yotishini, foyda masalasi birinchi masala ekanligini, ularning obro’ va mavqeい kapitalning hajmi bilan belgilanishini hayotiy dalillarda haqqoniy ko’rsatadi. “Maskovchi” boy Hodixo’janing “singani”ni eshitgan kapitalist va bank egalari unga mol va kredit berishni to’xtatib qo’yadilar, bergen qarzlarini tez-roq undirib olish payiga tushadilar. Mol keltirish uchun Moskvaga ketgan ukasi Poshshoxo’ja quruq qaytib keladi — va’daga mol berishmaydi, hamkasblar o’rtasida Hodixo’jaga ishonch yo’qoladi.

... Chunonchi xo’jam Poshshoxojani
Chu Maskov yuborgan bilan mol qani?!
“Fabrikantlar va’daga molini
Berishmay”, — dedi yig’lab ahvolini

Borib mol uchun, mol ololmay kelish

Yomon, ahli tujjorga mushkul ish.

Hodixo'ja qurayotgan zavodini ham bitkaza olmaydi, savdo ishlarida ketma-ket zarbaga uchraydi, oqibatda olgan katta qarzlarini to'lashdan ojiz bo'lib qoladi. O'z mavqeini saqlab qolishga qanchalik urinmasin, natija chiqarolmaydi; hovlilari sotiladi, molu mulki musodara qilinadi, oilasi buziladi. Voqealarni izchillik bilan tasvirlar ekan, shoir bu kapitalistning "fójiali" taqdiriga zarracha ham achinmaydi, aksincha, muallif munosabatida qoralash, zaharxandalik seziladi.

"Maskovchi boy ta'rifida" satirasida, bulardan tashqari, katta ahamiyatga ega bo'lgan yana bir epizod ham borki, unga chuqurroq to'xtashni lozim ko'ramiz. Mu-qimiy o'zbek adabiyoti tarixida birinchi bo'lib zavod-fabrika va korxonalarda paydo bo'la boshlagan ishchilarining og'ir hayoti va faoliyatini bu asarida qisqa shtrixlarda bo'lsa-da, hayotiy tasvirlashga muvaffaq bo'lgan. Hodixo'ja eshonning "sinishi" jarayonini ifodalar ekan, satirik shoir zavod-korxona ishchilar ("mardikorlari")ning unga bo'lgan munosabatini ham ko'rsatadi. Ishchilar, tabiiy, hali uyushmagan, siyosiy ongi past darajada bo'lsa-da, qo'llaridan kelganicha bu zolimga qarshilik ko'rsatadilar, passiv bo'lsa-da, kurashadilar. Bu ularning ishga chiqmasliklarida, zavodni tashlab ketib qolishlari tasvirida o'z ifodasini yor-qin topadi. Qochib ketgan ishchi-mardikorlar o'rtasida ma'lum birdamlik ham bor, xuddi shuning uchun ham o'z qardoshlariga ular bu "maskovchi boy"ga zinhor yollanmaslikni uqtiradilar:

Qochib ketti machchoyilar aksari,

Borib shulki yurtiga ta'kidlari:

"Saroeki, u boshadash, zinhor,

Dar onjo marav memuri, ey tabor!"

Ishchilarini qaytarish, zavodni yo'lga qo'yish uchun bo'lgan har qanday harakat kuzatilgan natijani bermadi. Mardikorlar Hodixo'janing rus "kupesi"ga ijara ga bergan zavodidan ham tarqalib ketadilar, uning zavodida ishlashdan bosh tortadilar, ishlashga da'vat qilib borgan xo'jayinga rad javobini beradilar.

...Topib mardikorini — "siychas yuring,

Pajolista, — der erdi, emdi turing”

Dedi: “Har kuni bersang o’n so’m ham

Borilmaydi qo’y zavutini, xo’jam!”

Dubora yana bordi bir ishga shul,

So’kib: “Net, — dedi, — kelma durrak! Pasho’l!”

Satira mavzuining organik qismi bo’lgan bu epizod shu jihatdan ham alohida diqqatga sazovorki, garchi Muqimiy paydo bo’layotgan, sinf sifatida uyushayotgan ishchilarning jamiyatdagi rolini to’g’ri va to’la tushuna olmagan bo’lsa-da, ishchilar vakilining yetuk ijobiy obrazini yaratmagan, ish tashlash voqeasini bosh mavzu qilib olib, uni keng ko’lamda yoritmagan bo’lsa-da, har holda davrning ilg’or namoyandasasi sifatida jamiyatdagi ijtimoiy bo’linishni ko’ra olgan, jumladan, ishchilar bilan zavod egalari o’rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshilikni idrok etgan, degan tezisimizni tasdiqlaydi. Shu ham muhimki, satirik shoirning xayrixohligi ishchilar tarafida ekanligi epizoddan sezilib turadi. Shoirning ishchi-mardikorlarni bir-birlariga gamxo’r qilib tasvirlashi, ularning faoliyatlarini oqlashi, xo’jayinlarga dag’al munosabatlarini ta’kidlashi, ular ustidan kulishi tasodifiy emas, albatta.

Muqimiyning chin novator shoirligi, realistligi, ijodining xalqchil, hayotiyligi shundaki, u endigina paydo bo’layotgan katta ijtimoiy kuchni ko’ra oldi, prinsipda mohiyatini tushundi va uni badiiy asarda aks ettirdi. Obrazli qilib aytganda, u ana shu kichik, ammo juda muhim bir epizodi bilan o’zbek adabiyoti tarixi- da ishchilar sinfi va uning revolyutsion faoliyati kabi ulkan bir binoning birinchi pishiq g’ishtini qo’ydi.

Muqimiy “Maskovchi boy ta’rifida” asarida shakllanayotgan milliy burjuazianing tipik vakili bo’lgan Hodixo’ja eshonning salbiy obrazini yaratdi. Boshqa asarlaridagi kabi, bu satirasida ham, shoir hayotiylik va

badiiylikka, jumladan, personajlar tilini individuallashtirishga katta ahamiyat berdi. Oqibatda shunday natijaga erishildiki, satiradagi har bir personaj jamiyatda tutgan o’rni, milliy xususiyatlarga ko’ra o’z “tili”ga, o’z manerasiga ega. Bu hol shu personajlarning ichki dunyosini ochishda, ularning xarakterini belgilashda katta imkoniyatlar tug’diradi.

Masalan, biz tahlil etgan epizoddagi “Har kuni bersang o’n so’m ham borilmaydi” va “So’kib: — net,— dedi, — kelma durrak! Pasho’l!” jumlalari zavod egasining zulmi vaadolatsizligidan ezilgan ishchi-mardikorlarning konkret vaziyatdagi ruhiy kayfiyatlarinigina emas, balki, ayni zamonda, umuman xo’jayinlariga bo’lgan salbiy munosabatlari, o’z faoliyatlarini esa to’g’ri, qaqqoniy deb hisoblashlarini o’quvchiga yaqqolroq va ta’sirchan yetkazishda shoirning yutug’i kattadir. Muqimiyning har bir so’zni o’lchab, chertib o’z o’rnida ishlatish mahoratiga bu misra yaqqol misol bo’la oladi. U ishlashdan bosh tortgan, zavoddan bezgan va norozi ishchi-mardikorlarga mos — “o’z so’zlari”ni topa bilgan. Xo’jayinga nisbatan ters pozitsiyaga o’tib, dag’allik qilishlari ham, yaxshi ma’nodagi o’jarlik, irodalilik va qat’iyliklari ham tabiiy va hayotiy chiqqanidek, uni qaqratlab “so’kib” yuborishlari ham ishonarlidir.

Satiradagi ikkinchi guruh — xo’jayinlarning “tili” ham juda puxta ishlangan. Shoirning zavod boshqaruvchisining hiylakorligini yaqqolroq fosh etish maqsadida uning nutqiga sizsirab yolvorish ohangini singdirishi, shu maqsadda “pajolista” so’zini qo’llashi nihoyatda o’rinli. Odatda do’q qilish, terror, urish-so’kish yo’llarini tutuvchi bu amaldor yuz bergen konkret vaziyat tufayli ishchi-mardikorlarga yalinishga, ularni shirin muomala bilan aldashga urinishga majbur bo’ladi. Shoir, jumladan, ana shu birgina so’zni joyida ishlatish bilan personaj xarakteridagi mug’ombirlikka ravshanlik kiritadi, shu momentda uning ichki kechinmalarida tahlika, tashvish, shubha ustunligiga ishora etadi.

Muqimiy merosida mavzu jihatidan “Maskovchi boy ta’rifida” satirasiga yaqin “Urug” radifli g’azali mavjud. Unda ham kapitalistik munosabatlarning: doimiy yo’ldoshi — krizis haqida so’z boradi. Agar Ho~dixo’ja eshon misolida sanoatdagi raqobat, “sinish”lar ko’rsatilgan bo’lsa, bu asarda paxtachilikdagi aynan hodisa qalamga olinadi. Qishloq xo’jaligida asosan eski feodal munosabatlar hukmron bo’lib qolaverган bo’lsa- da, ba’zi sohalarda, xususan paxtachilikda, ayrim jonlanishlar 90-yillarga kelib

ko’rina boshlaydi. Sanoatning paxtaga bo’lgan talabining osha borishiga muvofiq holda paxtachilikning rivojlanishidan to’la manfaatdor edi. Bu yillarga kelib mahalliy paxta navlari o’rniga yangi navlar, masalan, “amirkon paxta” ekila boshladи. Mahalliy savdogar va milliy burjuaziya bu jonlanishdan foydalanib, paxtakor dehqon ommasini qattiq ekspluatatsiya qilish evaziga katta daromadlar ola boshladи. Ammo, ma’lumki, burjua jamiyatida har qanday jonlanish, o’z navbatida, tushkunlik, krizis bilan almashinib turadi. Qishloq xo’jaligida ham xuddi veksel bo’yicha qarz olgan, ammo zavodini bitkazolmay “singan” eshon— o’sha ma’lum Hodixo’janing “joni chiqqan”ligi haqida so’z ketadi:

Mastur qolmagaykim, so’zning yo’g’oni chiqdi,
Oltiariqlari ham veksilni koni chiqdi,
Zovutni bitkazolmay Eshonni joni chiqdi ...

Ammo, Zavqiy g’azalining bosh mavzui veksel hujjatlari bo’lmagan (unda biror imo-ishorani ham, hatto bu so’zni ham uchratmaymiz), va demak (taxmis bog’lash prinsiplariga rioya qilingani holda), Muqimiy taxmisining ham asosiy mazmuni batamom boshqadir. Zavqiy g’azalida ham, Muqimiyning unga bog’lagan taxmisida ham Farg’ona iqtisodiy hayotida katta voqeа bo’lgan pul islohoti va uning oqibatlari tasvir etiladi. Shunga ko’ra, noshirlar tomonidan asarga berilgan nomni o’zgartirish, muxammas mazmuniga to’la muvofiq tushadigan yangi sarlavha qo’yish zarur ko’rinadi.

Gap shundaki, Qo’qon xonligini uzil-kesil bo’ysundirib, siyosiy va iqtisodiy jihatdan o’z mavqeini mustahkamlab olgan chorizm 90-yillarda bu yerda pul islohotini o’tkazadi. Turkiston bilan aloqador bo’lgan metropoliya kapitalistlari manfaatlarini ko’zlab ko’rilgan bu siyosiy-iqtisodiy aktga muvofiq, Qo’qon xonligida zarb etilgan kumush tanga pulning qimmati 25 protsentga kamaytiriladi. Ana shu ijtimoiy voqeani satirik planda tasvirlovchi Zavqiy g’azaliga Muqimiy taxmis bog’lab, g’oyaviy jihatdan uni chuqurlashtirib, tanqidiy fosh etish ruhini keskinlashtirgan. Zavqiy o’z g’azalida pul islohotining mag’zini quyidagicha qisqa va aniq belgilaydi:

Har tangada miridin yaqqolziyoni chiqdi.

Muqimiy tomonidan qo'shilgan mana bu izohlovchi misralar esa asarda ran asosan pul islohoti haqida borayotganligiga hech qanday shubha qoldirmaydi:

To o'tti Rusiyog'a Farg'onanining xiroji,

Qoldi rivoj olmay Ho'qandi zarb royiji.

Satirik shoirlar bu mavzuga qalam urar ekan, unga xalq manfaatlari nuqtai nazaridan yondashadilar, ularni pul islohotining, avvalo, mehnatkashlar boshiga yangi kulfatlar keltirganligi tashvishga soladi. Bu mavzu Muqimiy uchun, birinchi navbatda, zamonadagiadolatsizlik va zo'ravonlikni, oddiy xalq ommasining bu tuzumda batamom huquqsiz ekanligini yana bir bor baralla aytish vositasi ham bo'lgan. Shu ma'noda shoirning mana bu misralari ayniqsa xarakterlidir:

Har ishki, xalqimizg'a hokimlar etsa farmon,

Qilmay iloji yo'qtur, dushvoru xohi oson!

Bu misralar o'sha davrdagi hukmron ijtimoiy tartib- qoidalarga, tuzumga qarata aytilgan kuchli aybnoma kabi jaranglaydi. Muqimiyning bu satirik muxammasi voqeani bayon etish tartibi, vaznining yengilligi, tilining soddaligi, uslubning ravon hamda qofiyalarning pishiqligi, serma'noligi jihatidan ham ajralib turadi. Muqimiy ijtimoiy-iqtisodiy hayotda jamiyatning har bir a'zosi manfaatlariiga tegishli bu katta voqeani xalqchillik tomonidan tasvirlar ekan, nihoyatda aniqlikka erishadi. Bunda shoirga xalq iboralari, maqol-matallari, jonli so'zlashuv tilidagi tayyor birikmalar juda qo'l keladi, ular misralar mazmunini keng ochib taxmisning umumiylar satirik yunalishining yuzaga chiqishida katta rol o'ynaydi. Adabiyotimizda mahalliy amaldorlarning zo'ravonlik faoliyati va jirkanch fe'l-atvorlarini fosh etuvchi bir qator satirik asarlar yaratildi. Bu mavzu Muqimiy ijodida ham markaziy o'rnlardan birini egalladi. Shoirning "Tanobchilar" nomli mashhur satirasi, "Asrорqul", "Dodoxhim", "Voqeai ko'r Ashurboy hoji" kabi asarlari davr satirik adabiyotining eng yaxshi namunalaridan bo'lib, ularda chor chinovniklari va mahalliy amaldorlarning qator salbiy-satirik obrazlari chiziladi. Shoirning "Sayohatnama"larida ham bu mavzu keng ishlanadi. "Tanobchilar" satirasiga yer solig'i, uning amalgamasi

oshirilishi, amaldorlarning faoliyati va dehqonlar ommasining ularga bo'lgan munosabatlari asos qilib olingan. Mahalliy amaldorlar va qishloq boylari uchun aldash, poraxo'rlik va zo'ravonlik vositasi bo'lgan "tanobkashlik" (soliqlar miqdorini belgilash uchun ekinzorlar hajmini aniqlash) jarayoni orqali satirik shoir qishloqlarning talanishi, dehqonlar ommasining esa batamom huquqsizligining umumlashma lavhasini chizib beradi. Tanob solig'i dehqonlar ommasini badtar xonavayron qilib, ularning butun yil bo'yli og'ir mehnat qilib yetishtirgan hosillarini talon-toroj etilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham Muqimiy lo'nda va qat'iy ko'rsata olganidek, "tanob" hukmron sinflarga — "o'zgalarga", "rohat", ammo, dehqonlar uchun esa "azob" edi.

*O'n ikki oyda keladur bir tanob,
O'zgalarga rohatu menga — azob!*

Shoir satirani oddiy dehqon tilidan yozadi, bu usul asarning ijtimoiy mazmunini ta'kidlashga, dehqonlarning dunyoqarashi, ruhiy kayfiyatlarini chuqurroq ochishda qulay imkoniyatlar beradi. Dehqon amaldorlar zulmidan,adolatsizlik va zo'ravonlikdan norozi:

*Adl qulog'ila eshit holimi,
Zulm qilur, baski, menga zolimi!*

Shoirning asarda qo'llagan usullari niqoyatda muvaffaqiyatli chiqqanini ta'kidlash lozim. Asarning boshidan oxirigacha ikki guruh, ikki qarama-qarshi sinf vakillari: amaldorlar—zulm qiluvchilar va jabrlanuvchilar guruhi harakat qiladi; ezilgan dehqon obrazi — bayonchidan tashqari amaldorlar guruhining vakillari sifatida Sulton Ali xo'ja va Hakimjonlarning satirik obrazlari yaratiladi. Bu ikkala amaldor o'zlarining qishloq ommasiga qarshi qaratilgan faoliyatlarida bir-birlari bilan qalin ittifoqda. Muqimiy bu ittifoqni xalq ertaklari ruhida favqulodda mahorat bilan shunday tasvirlaydi:

*Sulton Alixo'ja, Hakimjon ikov,
Biri — xotun, birisi bo'ldi kuyov,*

*Ikkalasi bo'ldi chunon ittifoq,
Guyo xayol aylaki qilmay nifoq.
Osh yesalar o'rtada sarson ilik,
Xo'ja — chirog' yog'i, Hakimjon — pilik.
Bir-birisiga solushurlar o'run,
Ertayu kech o'pishib og'iz-burun.*

Asarda amaldorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatga bu qadar e'tibor berilishi bejiz emas. Bular Sulton Ali xo'ja va Hakimjonlarning birgalashib, hamkorlikda qishloqdagi zo'ravonlik faoliyatlarining ishonarli chiqishiga xizmat qiladi. Oddiy xalqni ezish va ular hisobiga kun ko'rish bu ikki shaxsni o'zaro "do'st" qilib qo'ygan. Shoir bu "do'stlik"ni xalq iboralaridan o'rinli foydalanib shu qadar o'tkir zaharxanda va piching-kinoyalar bilan tasvirlaydiki, natijada, har bir o'quvchi uni xalqimiz tomonidan doimo ulug'lanib kelgan haqiqiy insoniy do'stlikka sira o'xshamasligiga shubha ham qilmaydi. Muqimiylar Sulton Ali xo'ja va Hakimjon obrazlarining turli tomonlarini butun asar davomida izchillik bilan ocha boradi. Bu ikki hamtovoqning xarakterlari ham, ichki dunyosi ham bir-biriga yaqin va ayni zamonda shahs sifatida o'z qiyofasiga ega:

*Birlari mo'ltoninamo hiylagar,
Birlaridir kunda fihu gavda xar.
Og'izlari maqtanib o'n besh qarish,
Mayda suxan, ezma ... zanchalish.*

Shoir amaldorlarning tashqi portretlarini chizishda ma'naviy puch ichki dunyosi, hayvoniyligi qis-tuyg'u, intilishlariga mos ravishda tashqi jirkanch qiyofalarining xarakterli belgilarini topa oladi. Shunga ko'ra boshiga uch qavat salsa o'ragan badbashara, qo'lida qamchi o'ynatib vajohat bilan turgan hayvonsimon, mug'ombir amaldorlar ko'z oldimizda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu kabi o'tkir tavsif-portretlarning, amaldorlarga munosabat va ular ustidan hukmlarning asar davomida oddiy dehqon tilidan

berilayotganini eslasak, Muqimiyning satirik maqorati yana bir bor yaqqol ko'rinadi.

Amaldorlar tanob o'lchash uchun kelgan qishloqlarida, birinchi navbatda, dehqonlarni yig'ib, ularga ruhiy ta'sir ko'rsatishga kirishadilar: amaldorlar hokimlik va zo'ravonlik huquqlarini o'zlarining ijtimoiy kelib chiqishlarini avliyolarga, "Erxubbi va Bibi Ubaydalar"ga mansub ekanliklari bilan ham asoslamoqchi bo'ladilar. Bu bilan satirik shoir Sulton Ali xo'ja va Hakimjonlarning pixini yorgan mug'ombir ekanliklarini, talon-torojda turli vositalardan tap tortmay foydalanuvchi tajribali muttahamlardan ekanliklarini ochib tashlaydi va ayni zamonda diniy tushunchalar ularga bir niqob bo'lib xizmat etishiga ishora qiladi:

Qaysiki qishloqqa tushar otidin,

Elni yig'ib voqif etar zotidin.

Derki: "Ko'zungga hali kal jo'jaman,

Mahdumi a'zamlik o'zim xo'jaman!

Ham yana Erxubbi bo'lodur tag'o!

Ammamizning erlaridur Nurato!

Bibi Ubayda bo'lodur xolamiz!

Goh kelur erdi kichik bolamiz.

Hizr otamlarga burodar erur!

Azizlar menga dodar erur!

Qalbaki "avliyolar" o'z buyruq va hayvoniylarining dehqonlar tomonidan suzsiz bajarilishini talab qiladilar, o'zlarini har narsaga qudratli va jur'atli qilib ko'rsatgan amaldorlardan quyidagi do'q-po'pisalarni kutish ishonarli chiqqan:

O't qo'yubon kuyduraturg'on o'zim!

Hokimingu o'lduraturg'on o'zim!

Xoh tanobingni duchandon qilay!

Xoh karam birla boshingni silay!

Yoki:

Ikki tanobingni qilay o'n tanob!

Yurtingizni kuydurub aylay xarob!

Xoh o'ling, xoh qoling, bachchag'ar!

Bu parchada Muqimiy satirasining hayotiyligi, ta'sir kuchi bo'rtib yuzaga chiqadi. Shoирning tasviricha, qishloqlarni o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida hech tortinmay "kuydirib" yuborishga tayyor turgan yovuzlar, hech bir gunohi bo'lмаган bechora dehqonlarni "o'ldirishga" otlangan vahshiylardir. Ular deodonlar bilan hatto insonlarcha muomala qilishni o'zlariga ep ko'rmaydilar. Bu epizod orqali Muqimiy mahalliy amaldorlarning yovuz basharalarini, ochib tashladi.

Muqimiyning katta yutug'i shundaki, u mantiqiy izchillikka erishadi, amaldorlarni fosh qilishni kuchaytira borib, pora olish bilan qanoatlanmaganliklarini ko'rsatadi:

Zulm bilan elligu yuzni olur,

Boz tanobini duchandon solur.

Muqimiy "Tanobchilar"da chor amaldorlarining yovuzliklarini shu qadar ishonarli tasvirlaydiki, uni o'qigan har bir kishida ularning chindan ham zolim, poraxo'r, dag'al, muttaham ekanliklariga shubha solmaydi. Asar Muqimiy davridagi dehqonlarning og'ir iqtisodiy va batamom huquqsiz ahvolini, maqalliy amaldorlarning zulmini badiiy tasvirlovchi ishonchli tarixiy hujjatdir.

2.3. Muqimiy asarlarining o'ziga xosligi, didaktik ahamiyati va bizning zamon.

Milliy adabiyotimiz tarixida XIX asr oxiri-XX asr boshlari Qo'qon adabiy muhitidan yetishib chiqqan ijodkorlar adabiy merosi alohida o'rinn tutadi. Bu adabiy muhitning zabardast namoyandası Muhammad Aminxo'ja Muqimiy asarlari har doim mutaxassislar diqqat markazida bo'lган. Ma'lumki, shoир ijod namunalari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Taassufki, ularda Muqimiy asarlari

sho'ro davri mafkurasi talabiga ko'ra bir tomonlama talqin qilingan. Natijada shoir nazmiy merosi o'zining asosiy mohiyatidan uzoqlashtirildi. Ya'ni asarlari tahrirga uchradi, qisqartirildi, manbalarda qolib ketdi. Bu esa, o'z navbatida, shoir adabiy merosini yangicha mezonlar asosida xolis va haqqoniy o'rganish zaruratini taqozo etadi.

Shoirning "Bachchag'ar", "Qurbaqalar", "Hajvi Bektur" singari hajviyalari tadqiqi buning dalilidir. Muqimiyning "Bachchag'ar", "Qurbaqalar" radifli ikki satirasi muqimiyyunos olimlar tadqiqtolarida Dukchi eshonga bag'ishlangan ilk she'r sifatida talqin etib kelindi. Bu haqda dastlab akademik shoir G'.G'ulom tadqiqtida munosabat bildirilgan: "Bu she'r Dukchi eshon to'g'risida yozilgan"⁵¹. SHundan so'ng adabiyotshunos Xomil Yoqubov ham bu fikrga qo'shiladi: "Muqimiyy "Qurbaqalar" va "Hajvi xalifai Mingtepa" she'rlarida Dukchi eshon munofiqligini fosh etadi..."⁵². Muqimiyyunos Abdulla Olimjonov bu qarashni tasdiqlab, quyidagilarni qo'shimcha qiladi: "Hajvi xalifai Mingtepa" va "Dar mazammati qurbaqa" satirasida Dukchi eshonning 1898 yilda diniy-reaktsion chiqishiga keng xalq ommasining nafrat bilan qaragani aks etdi. Eshonning riyokor va makkorligi, puch ma'naviy hayoti ochib berildi."⁵³. Hodi Zaripov esa masalaga qisman oydinlik kiritishga harakat qilgan: "Muqimiyning "Bachchag'ar" radifli mashhur satirasida o'tkir so'zlar bilan savalangan tip Qo'qonda Muqimiyy yashagan madrasaning mutavallisi bo'lgan kishi... Bu obraz bilan shoir ayni zamonda muttaham Dukchi eshonning qiyofasini ochib tashladi"⁵⁴.

Adabiyotshunoslар H.Olimjon, Oybек, A.Abdug'afurovlar fikriga ko'ra, "bachchag'ar" radifli she'r Dukchi eshonga bag'ishlangan bo'lsa-da, unda manfaatparast eshonlar umumlashgan obrazi berilgan⁵⁵.

Professor G'.Karimov tadqiqtolarida esa mazkur hajviy asarlar Dukchi eshonga bag'ishlangan dastlabki she'r sifatida talqin qilinadi: "Demokrat shoirlar

⁵¹ **G'afur G'ulom.** Muhammad Aminxo'ja Muqimiyy. Tanlangan asarlar. –T.: O'zdavnashr, 1953, 157-bet.

⁵² **Yoqubov H.** O'zbek demokrat shoiri Muqimiyy. –T.: O'zFan, 1953, 17-bet.

⁵³ **Olimjonov A.** Muhammad Amin Muqimiyy. –T.: O'zFan, 1953, 30-bet.

⁵⁴ **Zarifov H.** Muhammad Amin Muqimiyy. Hayoti va ijodiga oid materiallar. – T.: 1955, 17-bet.

⁵⁵ **Hamid Olimjon.** Muhammad Aminxo'ja Muqimiyy. // O'zbekiston sa'ati va madaniyati, 1938, 7-son; **Abdullaev V., Abdug'afurov A., va boshqalar.** O'zbek adabiyoti tarixi. –T.: Fan, 1980, V tom, 98-bet; **Oybек.** Muqimiyy asarlarida sotsial tiplar. // Zvezda Vostok, 1947, 7-son, 72-78-betlar.

Dukchi eshon kirdikorlarini fosh qilishga qaratilgan satirik asarlar yoza boshladilar. Muqimiylar birinchi bo'lib o'zining "bachchag'ar" radifli "Hajvi xalifai Mingtepa" satirasini yozdi... Muqimiyning "Dar mazammati qurbaqa" satirasi ham Dukchi eshonga qarshi qaratilgan. G'azal shaklidagi bu satira 1998 yilda Dukchi eshon voqeasi ro'y bergan joyda – Oyimqishloqda yozilgan...⁵⁶ deb yozadi olim.

Xo'sh, bu ikki she'r Dukchi eshonga bag'ishlanganmi? Masalaga xolis yondashilsa, boshqacha xulosa chiqarish imkoni tug'iladi. Ko'r nadiki, G'.G'ulom, X.Yoqubov, A.Olimjonov, G'.Karimov tadqiqotlaridagi fikrlar bir xil. Keyingi izlanishlar bu talqinning asossiz ekanligini ko'rsatmoqda. Jumladan, G'.Karimov Dukchi eshon qo'zg'oloni bo'lib o'tgan joyni Oyimqishloq deb ta'kidlaydi. Aslida bu voqealari Mingtepada bo'lib o'tgani tarixdan ma'lum. Bu xususda professor H.Boltaboev qimmatli fikrlar bildiradi: "...Andijon voqealaridan ozmi-ko'pmi xabardor kishiga ma'lumki, qo'zg'olon Mingtepada (hozirgi Marhamat) boshlanib, Andijon garnizoni soldatlarning o'ldirilishi bilan tugaydi va 40 km. dan mo'lroq narida joylashgan Oyimqishloqqa aloqasi yo'q. Professor G'.Karimov "davr talabi bilan" Oyimqishloqni ham "Mingtepa"ga aylantirgan ko'r nadidi"-deya olim mazkur she'rlarning Dukchi eshonga mutlaqo aloqasi yo'q ekanligini ta'kidlaydi.

Adabiyotshunoslar B.Qosimov va A.Erkinov tadqiqotlarida Dukchi eshon turkumidagi she'rlar va ularning mualliflari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ular Muqimiyning ikki hajviy she'ri o'z ilmiy yechimini topmaganligi, uni hal etish adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridan ekanligi xususida yozadi⁵⁷.

A.Madaminov va A.Turdaliev maqolasida bu masalaga bir qadar oydinlik kiritilgan: "Muzeyimiz xazinasida mashhur faylasuf, shoir So'fi Olloyorning "Maslak ul-muttaqin" asarining (saqlanish raqami 6738) hijriy 1304 (milodiy 1887) yili Xo'qand shahrida Muhammad Qosim mullo Sodiq o'g'li tomonidan ko'chirilgan nusxasi saqlanmoqda. Qo'lyozma 446 varaq bo'lib, uning 1b-2a-varaqlarida (kitobga ilova qilingan qo'shimcha varaqlarda) "Az Muhammad

⁵⁶ Каримов Ф. Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: 1987, 3-китоб, 110-бет.

⁵⁷ Болтабоев Х. Ёлланган адабиёт сирлари. /ЎЗАС, 1998, 49-сон

Aminxoja. Hajvi Muhammad Musoboy (“Muhammad Musoboy hajvi”) sarlavhasi ostida shoirning “Bachchag’ar” hajvi berilgan”⁵⁸.

Bu ikki olimning manbalar tahlili asosidagi fikrlari ham mazkur hajviya Dukchi eshonga mutloqa aloqasi yo’q ekanligini tasdiqlaydi.

Muammoni yanada oydinlashtirish uchun “bachchag’ar” va “qurbaqalar” radifli she’rlar manbalariga murojaat qilish zarurati seziladi. G’.Karimov xizmati bilan chop etilgan Muqimiyy asarlar to’plamida bu ikki she’r “Hajvi xalifai Mingtepa” va “Dar mazammati qurbaqa” deb sarlavhalangan. Olim Muqimiyy asarlar to’plamining izohlar qismida “Hajvi xalifai Mingtepa” satirasi manbasi haqida bunday yozadi: “SHu kungacha “Bachchag’ar” nomi bilan yuritilib kelgan bu satirani biz “Xajvi Xalifai Mingtepa” deb atashni muvofiq ko’rdik. Bu nom Muqimiyyning yaqin do’stlaridan biri namanganlik shoir Nodimning musavvada daftaridan olindi.”⁵⁹.

Haqiqatan ham, bu hajviy she’r matni Nodim Namangoniying 4179 raqamli qo’lyozma bayozida uchraydi. Savol tug’iladi. Nega, Nodim Namangoniy bu she’rga “Hajvi xalifai Mingtepa” deb sarlavha qo’ygan? Bu masalani ikki asosga ko’ra izohlash mumkin.

Birinchidan, professor H.Boltaboev ta’kidlaganidek: “Andijon qo’zg’oloni xususida Rusiya harbiy genshtabining arxiv materiallaridan ma’lum bo’lishicha, 1898 yilning iyul-avgust oylarida rus ma’muriyatining maxsus topshirig’i bilan vodiyning eng e’tiborli shoirlari Dukchi eshonni fosh qilib asarlar yozishi kerak edi. (“Krasniy arxiv” №3 (88). 1938.) Aftidan, ana shu topshiriq Zavqiy, Nodim Namangoniy va Rojiy Marg’inoniy zimmasiga tushgan.”⁶⁰.

Ikkinchidan, Muqimiyy va Nodim Namangoniy ijodiy hamkorligi, do’stona munosabatlari adabiyot ahliga ma’lum. Nodim Namangoniy Muqimiyyning mazkur hajviy she’rini Dukchi eshon turkumidagi she’rlar qatoriga qo’shib, uni mustamlaka siyosati topshirig’iga rioya qilgan etib ko’rsatgan, nazarimizda.

⁵⁸ Косимов Б. Излай-излай топганим. –Т.: Faafur Fulom nomidagi Adabiёт va sanъat, 1983, 59-бет; Эркинов А. // Ўзбекистон тарихи, 2004, 3-сон, 76-бет.

⁵⁹ Мадаминов А., Турдалиев А. “Баччагар” кимга бағишланган. /ЎзАС, 1992, 3-сон.

⁶⁰ Каримов Ф. Мукимиий. Асарлар тўплами. –Т.: Ўздавнашр, II том. 1960, 184 -бет

Tarix haqiqatiga bu tarzda teskari ma’no yuklash to’g’ri emasligi xususida professor SH. Yusupov qimmatli fikrlar bildiradi: “...Tadqiqotchining qo’liga tushgan, saqlanish joyi aniq bo’lgan bunday fakt va hujjatlarning o’zi tarix bo’la olmaydi. Ular tarix haqiqatini aniqlashda tadqiqotchi qo’lida xom ashyoginadir, xolos. Xalqimiz o’tmishining mustamlaka istibdodi bo’g’ib tashlagan o’ta murakkab bir davrida yuzaga kelgan bunday fakt va hujjatlar zamirida nimalar turganini, ular qanday hayotiy zarurat tufayli paydo bo’lib qolganini ...tadqiqotchi Allah ato etgan aql-farosatni ishga solib idrok etmog’i darkor. Aks holda aslida xalqimiz iftixori bo’lgan, biroq mash’um mustamlaka istibdodi sharoitida faoliyat ko’rsatgan va boshida qasos qilichi yalang’och turganida ham el-yurt tinchligi va istiqbolini o’ylagan, nochor qolgan chog’larida mustabidlar bilan murosa-madora yo’lini tutishga majbur bo’lgan, shundan keyin imkon tug’ilishi bilanoq o’zining asl qiyofasini ko’rsata olgan tabarruk zotlarni tarix oldida, keljak oldida yomonotliq qilib ko’rsatib, gunohi azimga qolish hech gap emas.”⁶¹.

Muqimiyning mazkur hajviyalariga ham ana shu mezon asosida yondashish zarur. Keyingi izlanishlar shuni tasdiqlaydiki, “bachchag’ar” radifli hajviy she’r Dukchi eshonga emas, Muqimiylar yashagan “Hazrat” madrasasining mutavallisi Muhammad Musoboy sha’niga bag’ishlangan.

Muqimiyning “Qurbaqalar” radifli hajviy asariga kelsak, sho’rolar mafkurasining kuchli tazyiqi sabab mazkur she’r tahrirga uchragani kuzatiladi. Hajviyaning 5-, 7- baytlari shoir asarlari to’plami nashrining barchasida quyidagi variantda uchraydi:

*Xoh noxoh Mingtepa o’ylab qilursiz zikri jahr,
Hovz davrinda hama mastu piyon qurbaqalar.
Ilgari erkan Oyim qishloq, Muqimiylar, emdi hayf,
Bachchag’ar oq do’ppilik qorin yo’g’on qurbaqalar.*

Muqimiyning 1325-raqamli o’z qo’lyozma bayozida (121^a -sahifa) asliyat matni:

⁶¹ Каримов Ф. Мукимиий ҳаёти ва ижоди. (Монография). – Т.: 1970, 200- бет.

Yo o'rusdek jonuvorlarga bu kun mayrammukin,

Hovz davrida hama mastu piyon qurbaqalar.

Ilgari erkan Oyim qishloq, Muqimiyy, emdi hayf,

Bachchalar o'rnig'a havzida juvon qurbaqalar.

Ko'rinaridiki, mutaxassislar e'tiroziga sabab bo'lgan "Xoh noxoh Mingtepa o'y lab qilursiz zikri jahr", "Bachchag'ar oq do'ppilik qorin yo'g'on qurbaqalar"-misralari o'sha davr mafkurasi taqozosiga ko'ra ongli ravishda tahrir qilingan. Eng yomoni, she'r tarix haqiqatiga zid holda Dukchi eshonga bog'lab talqin etilgan.

Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlarining "Viktor" turkumidagi hajviy asarlari ham o'sha davr manzaralari tasviriga qaratilgan. Muqimiyy ham Zavqiy, Muhyi, Zoriy, Muhayyir va Qoriy singari bu mavzuda "Hajvi Bekturboy", "Hajvi Bektur", "Voqeai Bektur" hajviy she'rlarini yozgani mutaxassislarga ma'lum.

G'.Karimov "Hajvi Bekturboy" hajviyasining yozilish tarixi, Bekturboy firibgarliklari haqida so'z yuritib, Muhyining mazkur turkumdagi she'ri haqida bahstalab fikrlar bildiradi: "Muhyi satiralari uchun feodal-klerikal adabiyotning g'oyaviy yo'nalishi, diniy mazmun, panislomistik ruh xosdir... Temani ishlashda, talqin qilishda Muqimiyy Muhyiga printsipial zid turadi."⁶². Izlanishlarimiz natijasida bunday biryoqlama talqinlar asossiz ekanligini ko'rsatmoqda. "Muqimiyy asarlar to'plami"da "Hajvi Bekturboy" hajviyasini 4 band bo'lgani holda 2 bandi tushirib qoldirilgan. Natijada asarning asosiy g'oyasi soyada qolib ketgan. Aslida esa mazkur hajviya "Zapiski Vostochnogo otdeleniya imperatorskogo Russkogo Arxeologicheskogo obshchestva" to'plamining 1894 yildagi IX tomida 6 band holda uchraydi. Muqimiyy asarlari nashrlaridan tushirib qoldirilgan bandlar quyidagicha:

Shikva qilsam joizdir, zamonalarni bo'ldi?

Botil mazhab muravvaj, musulmonlarni xor bo'ldi.

Bektur tutgan ishiga yurak-bag'rim qon bo'ldi,

Kimki sanga pul berdi, ko'p yaxshi deb qo'l qo'ydi,

Bir umr ani ishi armon ekan, Bekturboy.

⁶² **Каримов F.** Муқимий. Асарлар тўплами. –Т.: Ўздавнашр, II том. 1960, 184 -бет

*Bo'lmas duo ijobat betaqvou betoat,
 Ko'rmas jannat yuzini har kimda yo'q diyonat,
 Mo'min qullar qilmaydur amonatga xiyonat,
 Arzon emas beillat, qimmat emas behikmat,
 Noinsofu betavfiq, olg'on ekan, Bekturboy.*

Shoir “*Shikva qilsam joizdir, zamonalar na bo'ldi?*”-deya o'sha davr ijtimoiy muhiti, undagi tartib-qoidalar to'g'risida, jamiyatdagi chor hukumati o'rnatgan adolatsizliklar haqida bong uradi. Musulmonlarning kofirlar zulmidan xor bo'lishi-yu, Bekturning firibgarliklari shoirning haqli e'tiroziga sabab bo'ladi.

Adabiyotshunos R.Tojiboev ham “*Hajvi Bekturboy*” muxammasining tushirib qoldirilgan ikki bandini keltirib, bunday yozadi: “Mazkur bandlar Muqimiylarini nashrga tayyorlovchilar tomonidan shoirning chop etilgan to'plamlariga nega kiritilmagani bizga qarong'u. Taxminimizcha, ulardagi chor Rossiyasi istilosiga munosabat (“*zamonalar na bo'ldi?*”, Botil mazhab muravvaj, musulmonlar xor bo'ldi”) fikrlar g'oyaviy-siyosiy jihatdan “ehtiyyotkor” bo'lgan noshirlarni cho'chitgan bo'lishi mumkin”⁶³.

Xullas, Muqimiyning “*Bachchag'ar*” radifli satirasi o'z mohiyatidan uzoqlashtirilib talqin etilganligi, “*Qurbaqalar*”, “*Hajvi Bektur*” hajviy asarlari matni tahrir qilinib, joriy nashrlardan tushirib qoldirilgan bandlari yangicha mulohaza yuritish, muhim umumlashma xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Muqimiylarini ijodi istiqlol yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Shoir bosib o'tgan murakkab ijodiy yo'l va uning sermazmun adabiy merosi mustaqillik, Millat va Vatan manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqib o'rganish davom etmoqda. Shoir she'rlarida kuylashdan charchamagan nohaqliklar, “*qora bulutlar*” yo'qoldi. Ya'ni “... *Siz aytgan bahor keldi, Siz aytgan zamon keldi. Qora bulut yo'qolib, Quyosh nurini sochdi*”. Mustaqil O'zbekistonimizning qaeriga bormang, kattakatta o'zgarishlar guvohi bo'lasiz. Ko'nglingiz yayraydi, shukronalik jo'sh uradi.

⁶³ Тожибоев Р. Бир адабий чалкашлик хусусида. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007, 6-сон, 45-бет.

Bu kunlarni shoir Muqimiy ko’rmadi, lekin u asarlari bilan zamonamizga jo’r ovoz bo’lmoqda.

Istiqlol yillarida, ya’ni 1997 yilda adabiyotshunos A. Madaminov “Yangi bayoz” to’plamini nashrga tayyorladi. Bunga shoirning avvalgi to’plamlaridan joy olmagan she’rlari kiritilgan. Adabiyotshunoslardan A. Turdialiev 2010 yilda shoirning “Bog’ aro”, E. Ochilov 2009 yilda “Ko’nglim sandadir” nomli to’plamlarini nashr ettirdilar. Qisqasi, shoir ijodini o’rganish davom etmoqda⁶⁴.

⁶⁴ Bu haqda qarang:Til va adabiyot ta’limi jurnali,2015-yil,9-son.**O. Karimov.**Muqimiy ijodi klaster tahlilda.20-22-betlar

X U L O S A

O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan so'ng milliy qadriyatlarni, jumladan, adabiy merosimizni xolis ilmiy tadqiq qilish imkoniyati paydo bo'ldi, ajdodlarimiz merosini har tomonlama chuqur o'rganish masalasiga alohida e'tibor berilayotgani ham quvonarli holdir. Hurmatli Yurtboshimiz ko'plab asarlarida va ma'ruzalarida milliy g'oya, milliy mafkurani tiklash uchun milliy qadriyatlarning o'mi beqiyosligini, beba ho ma'naviy merosimizni o'rganish, tadqiq qilish va yoshlar ongiga singdirish zarurligini qayta-qayta ta'kidlaganlar. ma'naviyat bugunning muhim masalasi ekan, bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar hali ko'p. Chunki ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosni to'la o'rganilmagan, ochilmagan qirralari ko'p.

Shu jumladan, Qo'qon adabiy muhitining yirik vakili ulug' shoir Muqimi y merosi har qancha o'rganishga arziydigan xazina desak arziydi. Shoir XIX asr oxiri XX asr boshlari Qo'qon adabiy muhitida, qolaversa, o'zbek adabiyotimizda yetakchi o'rinda turadi. Qo'qon adabiy muhitida Turdi, Maxmur, Zavqiy kabi san'atkorlar qatorida ulug'lanadi, e'zozlanadi.

Bizgacha yetib kelgan Muqimi y haqida ma'lumot beruvchi kitoblar san'atkorning haqiqatan sermahsul ijodkor bo'lganini isbotlaydi. Muqimi y ijodi bugungi kun olimlari tomonidan yangicha ko'rinishda o'rganilmoqda. A. Madaminov, S. Karimova, R. Tojiboyev, N. Jabborov, Q. Pardayev, A. Turdialihev kabi olimlarning bir qator ilmiy maqola va tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega.

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlar hamda ular asosidagi qarashlarimizning muxtasar xulosasi shundan iboratki, o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'r in tutgan Muqimi y ijodini butunlay yangi, keng qamrovli usullarda chuqur tadqiq etish adabiyotshunoslikning vazifalaridandir. Bu hodisa, jarayon mustaqillik kunlarida ham davom etmoqda. Biz bu fikrlarimizni umumlashtirib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Muqimi yning bizgacha yetib kelgan ijodiy merosini 10 ming misraga yaqin she'rlar tashkil qiladi. Shoir mumtoz adabiyotimizning g'azal, murabba', muxammas, musaddas, musamman, mulamma', ta'rix, ruboiy, qit'a, satira, humor,

sayohatnama kabi o'ndan ortiq janrlarida barakali ijod qildi. Ayniqsa, shoir hajvlari ma'lum va mashhur bo'lgan. Shoir merosi manbalari bilan atroflicha o'rghanildi.

2. Shoir ijod jarayonida shakl va mazmunga alohida e'tibor bergan. Mazmunga muvofiq mavzu tanlay bilishi ham maqtovga loyiq, badiiy tomondan yuksak asarlar yaratib, ularda ilg'or g'oyalarni oldinga surgan. Bu holat shoir hayoti va ijodi aks etgan tazkiralarda tadqiq qilingan. Hayotdagi nohaqliklar, ijtimoiy tengsizliklar ko'plab asarlariga mavzu bo'lgan.

3. Muqimiy lirikasining anchagina qismi muhabbat, ishq mavzusida. Bu mavzuni o'quvchi qalbiga yetkazishda oshiq, ma'shuqa, raqib kabi lirik timsollardan unumli foydalanim, muhabbatning buyuk ne'mat ekanligini, inson ruhiy olamining bebaho mulkligini ifoda eta olgan. Bu borada ustozlariga ergashgani, ulardan ilhom olgani ko'plab ishqiy g'azallarida ifodasini topgan.

4. Muqimiy ijodining asosini tashkil etgan hajvchilik (satira va humor) g'oyasi ularda poraxo'rlik, oddiy xalq hisobiga yashash, ular molini talash insonparvarlik, hayotsevarlik, ruhan poklik, ma'naviy yuksaklik g'oyalari bilan uyg'un holda o'z ifodasini topgan. Ishimizda she'rlarining qiyosiy-matniy tadqiqi haqida ham fikr yuritildi.

5. Shoir qaysi janrda ijod qilmasin, unda an'anaviylik kuchli. Alisher Navoiy, Turdi, Maxmur, Zavqiy an'analariga sodiq holda ularni yangicha yo'nalishda davom ettirishga harakat qilgan va ma'lum ma'noda yutuqlarga erishgan.

6. Shoir maxsus badiiy tasvir vositalariga, she'riy san'atlarga ham befarq bo'limgan. Ulardan o'rni bilan, ustalik bilan foydalana bilgan. Bular shoir mahoratini belgilab beruvchi muhim qirralardan biridir.

7. Muqimiy hajvlarida badiiy san'atning ko'plab namunalari – istiora san'atining go'zal namunalari uchraydi. Istiora, mubolag'a, sifatlash, tashbeh asrlar davomida she'riyatning qon-qoniga singib, uning zaruriy unsuriga aylangan.

8. Shu bilan bir qatorda Muqimiy o'ziga xos uslubda qofiya, radif, raddul matla', irsolli masal qo'llab, betakror shakily go'zallik yarata oldi. Bu esa uning badiiy salohiyati naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi.

Xullas, Muqimiy bizga boy va yuksak saviyadagi meros qoldirdi. Uning ijodi – tiniq chashma. Uni asrab-avaylash, tadqiq qilish va kelgusi avlodga yetkazish bizning oldimizdagi burchimizdir. Shoир ijodining o'rganilishi ilm ahlini ezgulikka, komillikka boshlaydi, hayotdagi kamchiliklarga, noxush illatlarni yo'qotishga chorlaydi.

Muqimiy ijodi o'z davridayoq o'rganila boshlangan. Undan keyingi yillarda va hozirgi paytda ham o'rganilmoqda. Bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlari esa uning manguligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Bizning bitiruv-malakaviy ishimiz ham bu boradagi kichik bir ulush bo'ladi, degan umiddamiz. Haq va haqiqatni aytishdan charchamagan, oddiy xalq ichidan chiqqan shoир Muqimiy bir baytida shunday yozgan edi:

*Muqimiy, ta'nayi Muhyiga bir so'z aytki, rost bo'lsin,
Kelar bir kun seningdek yo'qlagudek bir zamon yaxshi.*

Ha, shoирning umidbaxsh satrlari, orzulari bugun amalga oshdi. SHoir she'rlarini kuzatar ekanmiz, ularda ko'zga tashlanadigan shikoyat va nolish hayotdan qoniqish hosil qilmaslik emas, balki ertangi porloq kun yo'lidiagi kurash natijasi desak xato qilmagan bo'lamiz. Bu fikrlarimiz qanchalik haqligini bugun ko'rib turibmiz. Chindan ham shoир Muqimiy ko'p bor ta'kidlaganimizdek, Vatan va millat istiqbolini tarannum qiluvchi asarlari bilan o'zining ikkinchi umrini yashamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Ijtimoiy –siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. Истиқлол ва маънавият. Тошкент:. Ўзбекистон. 1994. – В. 118.
2. Каримов И. Ўзбекистон буюк келажак сари. Тошкент:. Ўзбекистон. 1998.- 688 б.
3. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент:. Шарқ. 1998. 3-бет.
4. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent.: Ma'naviyat. 2008.-B.176.
5. Каримов И. А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор -Т.: “O'zbekiston”, 2009. 40 б.
6. Каримов И. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 24 йиллигига бағишлиланган тантанали маросимдаги табрик сўзи. ”Ўзбекистон овози” 2015. 1-сентябр.
7. Каримов И. А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. Тошкент: Маънавият, 2015.

II. Ilmiy- nazariy adabiyotlar.

8. Qosimov Begali va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Darslik. T., 2004.
9. B. Qosimov. O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008, 600 bet.
10. Faфур Ғулом. Муҳаммад Аминхўжа Муқимий. Танланган асарлар. – Т.: Ўздавнашр, 1953, 157-бет.
11. Ёқубов X. Ўзбек демократ шоири Муқимий. –Т.: ЎзФан, 1953, 17-бет.

12. Олимжонов А. Муҳаммад Амин Муқимий. –Т.: ЎзФан, 1953, 30-бет.
13. Зарифов Ҳ. Муҳаммад Амин Муқимий. Ҳаёти ва ижодига оид материаллар. – Т.: 1955, 17-бет.
14. Ҳамид Олимжон. Муҳаммад Аминхўжа Муқимий. // Ўзбекистон саъати ва маданияти, 1938, 7-сон;
15. Абдуллаев В., Абдуғафурев А., ва бошқалар. Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: Фан, 1980, В том, 98-бет;
16. Ойбек. Муқимий асарларида сотсиал типлар. // Звезда Восток, 1947, 7-сон, 72-78-бетлар.
17. Каримов F. Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: 1987, 3-китоб, 110-бет.
18. Болтабоев Ҳ. Ёлланган адабиёт сирлари. /ЎзАС, 1998, 49-сон.
19. Қосимов Б. Излай-излай топганим. –Т.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1983, 59-бет;
20. Erkinov A. // O'zbekiston tarixi, 2004, 3-son, 76-bet.
21. Madaminov A., Turdaliev A. “Bachchag’ar” kimga bag’ishlangan. /O’zAS, 1992, 3-son.
22. Каримов F.Муқимий.Асарлар тўплами.–Т.:Ўздавнашр, ИИ том.1960,1846
23. Yusupov SH. Tarix va adab bo’stoni. –Т.: Ma’naviyat, 2003, 6-bet.
24. Каримов F. Муқимий ҳаёти ва ижоди. (Монография). – Т.: 1970, 200 б.
25. Tojiboev R. Bir adabiy chalkashlik xususida. // O’zbek tili va adabiyoti. 2007, 6-сон, 45-bet.
26. Каримова С. Фурқат мувашшаҳлари. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, 4-сон, 44-бет.
27. М.Шайхзода. Асарлар. Олти томлик. Бешинчи том. – Т.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973, 91-бет.
28. Қаюмов А. Шеърият жилолари. – Т.: Ўқитувчи, 1997. –Б.45.

29. Каримов F. Муқимий. Асарлар тўплами. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974, 76-бет.
30. Юсупов Ш. Янги саҳифалар. // Гулистон, 1978, 2-сон, 23-бет.
31. Жўрабоев О. Муқимий дастнавислари ҳакида. //Адабиёт кўзгуси, 2000,5 -сон, 16-бет
32. Турдиалиев А. Муқимийнинг жияни Рўзимуҳаммадга хат. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2001, 12 январь.
33. Юсупов Ш. Фурқат қалами изларидан. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1984, 13 ноябрь.
34. Каримов F. Муқимий. (Монография) – Т.: 1970, 67-бет.
35. Мадаминов А. Янги баёз. Т.: 1997, 14-бет.
36. Жабборов Н. Бадиий матн таҳрирининг хос хусусиятлари. – “Ўзбек адабиётшунослигида талқин ва таҳлил муаммолари” мавзудаги илмий-назарий анжуман материаллари. Т.: “Мумтоз сўз”, 2014, 28-бет.
37. Pardaev Q. Muqimiyning uch hajviyasi. – “O’zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari” mavzuidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari. T.: “Mumtoz so’z”, 2014, 38-43-betlar.
38. Пардаев Қ. Муқимийнинг уч қўлёзма баёзи./ Ўзбек тили ва адабиёти, 2013, № 4, 67-71-бетлар.

Internet adabiyotlari:

1. <http://www.ziyonet.uz>.
2. <http://vlibrary.freenet.uz> - «Virtual kutubxona» elektron darsligi
3. www.edu.uz
4. www.literature.uz
5. www.markaz.uz
6. www.navoiy.uz
7. www.uzedu.uz